($[M]=0,38$ mоль/l, $[I]=6 \cdot 10^{-3}$ mоль/l.)

T, K	$V \cdot 10^6$, mol/l·c	$K_m \cdot 10^4$	E , KJ/mol	$(E_p - 1/2 E_o)$, KJ/mol
323	1,04	0,6	94,9	30,9
333	3,20	1,8		
343	9,91	5,5		


2- va 3-jadvallarda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, AA-N-LKning suvli eritmalarida radikal polimerlanish tezligi AA-N-MLK ga qaraganda kattaroq qiymatga ega, jarayonining umumiy faollanish energiyasi ham nisbatan kichikroq qiymatga ega. AA-N-MLK ikkinchi monomerdan tarkibida faqat metilen guruhi mavjudligi bilan bir-biridan farqlanadi. Shuning

uchun ham monomerlarning reaksiyon qobiliyatidagi farqi va tuzilishi orasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida ularning elektronlarning strukturasi HyperChem 8 programmasi yordamida PM3 yarim empirik metodi yordamida hisoblandi.

AA-N-MLK va AA-N-LK tarkiblarida bir nechtdan karboksil guruhlar mavjud bo'lgani uchun ham, shubhasiz ularning radikal polimerlanish tezligiga eritmada ushbu guruhlarining ionlanish holatini o'zgartiruvchi turli omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham monomerlarning polimerlanish kinetikasiga suvli eritmaning rN qiymati va ion kuchi ta'siri o'rganildi.



3-rasm. AA-N-MLK (1) va AA-N-MLK (2) radikal polimerlanish tezligini eritma pH qiymatiga bog'liqligi



4-rasm. AA-N-MLK (1) va AA-N-MLK (2) radikal polimerlanish tezligini eritma eritma ion kuchiga bog'liqligi

Natijada har ikki monomer uchun ham polimerlanish tezligini reaksiyon aralashma rN qiymatiga bog'liqlik egri chiziqlari ekstremal xarakterga ega bo'lib (6-rasm), ushbu egrilarning minimum qiymatlari neytral muhitlarga to'g'ri kelishi aniqlandi, ushbu holat V.A.Kabanovning "ion juftliklar" nazariyasi bilan tushuntirildi. Reaksiyon eritmaga qo'yimolekulyar ionlar kiritilishi bilan monomerlarning polimerlanish tezligini ortishi (7-rasm) sababi esa, ularning o'sayotgan makromolekula va monomer molekulasining manfiy zaryadlangan karboksil guruhlar orasidagi o'zaro elektrostatik itarish kuchlarini ekananlashi bilan tushuntirildi.

Xulosa. Limon kislotasi asosida yangi monomerlar -akrilamido-N-metilen-limon va akrilamido-N-limon kislotalari sintez qilinib, ular asosida suvda eriydigan va bo'kadigan reaksiyon qobiliyatli polimerlar olindi. Akrilamido-N-metilen-limon va akrilamido-N-limon kislotalarining suvli eritmalarida radikal polimerlanish jarayonini kinetikasi tadqiq qilinib, ularning polimerlanish umumiy tenglamasi keltirib chiqarildi. Jarayonning faollanish energiyalari hisoblab topildi.

Monomerlarning polimerlanish jarayoniga eritma muhiti pH -qiymati, ion kuchi kabi faktorlarning ta'siri o'rganildi.

ADABIYOTLAR

1. Maitz M.F. Applications of synthetic polymers in clinical medicine // *Biosurface and Biotribology*, 2015. –Vol.1. Issue 3. – Pp. 161–176.
2. Slaughter B.V., Khurshid S.S., Fisher O.Z., A.Khademhosseini. Hydrogels in Regenerative Medicine // *Advanced Materials*, 2009. –Vol. 21. – No 4. – Pp. 3307–3329.
3. Ulery B.D., Nair L.S., Laurenci C.T. Biomedical Applications of Biodegradable Polymers // *Journal of Polymer Science Part B: Polymer Physics*, 2011. –Vol.21. – No 49. – Pp. 832 – 864.
4. Stein R.S Environmental aspects of polymer science and engineering // *Journal of Plastic Film & Sheeting*, 2015. –Vol. 31(4). Pp. 355–362.
5. Roy D., Brooks W.L.A., Sumerlin B.S. New directions in thermoresponsive polymers // *Chemical Society Reviews*, 2013. – Vol. 42. – No 17. Pp. 7214–7243.
6. Хазраткулова С.М. Радикальная полимеризация N-замещённых акриламидов природных оксикислот. Автореф. дисс... докт. философ.(PhD) хим. наук. – Ташкент, 2017. – 43 с.
7. Махкамов М.А. Синтез и свойства pH-чувствительных полимеров на основе гликолевой кислоты. Дисс... канд. хим. наук. – Ташкент, 2008. – 122 с.
8. Марч Дж. Органическая химия. В 4-х томах. Т.2. / Перевод с английского. М.А.Родкина. – Москва: Мир, 1987. – 504 с.
9. Pierre Talet, Val-de-Marne, Robert Behar. Acrylamido-N-Glycolic acid and methylol derivative // *United States Patent Office*. Paris France, Patent Jan. 14, 1969. – 422 p.
10. Препаративная органическая химия. / Под ред. Абрамова В.А. и Цветкова Н.Ф. – Москва: Химия, 1964. – 908 с.
11. Махкамов М.А., Атаханов А. А, Мухамедиев М. Г, Мусаев У.Н. К синтезу ненасыщенных производных природных оксикислот // *Химия природных соединений*, 2001. *Специальный выпуск*. – С.8–9.



Gulandom DALIMOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, k.f.d
E-mail: dalimova@list.ru

O‘zbekiston Milliy Universiteti dosenti, k.f.n. S.A. Maulyanov taqrizi ostida

KIMYOVIY EKOLOGIYA KURSIDA «YASHIL KIMYO PRINSIPLARI»NI O‘QITISH, I

Annotasiya

Maqolada Tabiiy fiziologik faol birikmalar kimyosi yo‘nalishi uchun ishlab chiqilgan yangi o‘quv kursi – Kimyoviy ekologiya kursida “yashil kimyo” prinsiplarini o‘qitishning o‘ziga xos taraflari, uslubiy yondoshishlari, ushbu prinsiplarning mazmuni va ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil kimyo, yashil kimyo prinsiplari, kimyoviy ekologiya, atrof-muhitning ifloslanishi, atrof-muhit muhofazasi, xom ashyo zahiralari, biotexnologiya, kimyo sanoati, pestisidlar, fosfororganik birikmalar.

TEACHING “PRINCIPLES OF GREEN CHEMISTRY” IN THE COURSE OF CHEMICAL ECOLOGY, I

Annotation

The article discusses specific aspects, methodological approaches, content and significance of the principles of “Green Chemistry” in a new educational course Chemical ecology, developed for the field of chemistry of natural physiologically active compounds.

Key words: green chemistry, principles of green chemistry, chemical ecology, environmental pollution, environmental protection, raw materials, biotechnology, chemical industry, pesticides, organophosphorus compounds.

ПРЕПОДАВАНИЕ “ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЕННОЙ ХИМИИ” В КУРСЕ ХИМИЧЕСКАЯ ЭКОЛОГИЯ, I

Аннотация

В статье рассматриваются конкретные аспекты, методические подходы, содержание и значение принципов «зеленой химии» в новом учебном курсе Химическая экология, разработанном для образовательного направления химия природных физиологически активных соединений.

Ключевые слова: зеленая химия, принципы зеленой химии, химическая экология, загрязнение окружающей среды, охрана окружающей среды, сырьевые ресурсы, биотехнология, химическая промышленность, пестициды, фосфорорганические соединения.

Kirish. Hozirgi zamon jamiyatida kimyo sanoatiga negativ munosabat mavjud. Chunki nisbatan yaqin vaqtlargacha inson faoliyatining masshtabi atrof-muhitning dinamik muvozanatiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatmas edi. Lekin, ishlab chiqarishning intensiv rivojlanishi natijasida ushbu faoliyat borgan sari yuqori xavf tug'dirmoqda.

«Yashil kimyo» (Green Chemistry) – XX-asrning 90-yillarida vujudga kelgan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, unga atrof-muhitga ijobiy ta'sir etuvchi kimyoviy jarayonlarni har qanday mukammallashtirish kiritiladi [1,2]. Jahondagi ko‘pchilik mamlakatlar laboratoriyalarida ishlab chiqilayotgan kimyoviy reaksiya va jarayonlarning yangi sxemalari ko‘p tonnajli kimyo sanoatining atrof-muhitga ta'sirini kardinal kamaytirishga qaratmoqda. Odatda sanoatchilar agressiv muhitdan (erituvchi va reagentlar) foydalanishda ishchilarning ushbu moddalar bilan kontaktini kamaytirishga intilishar edi. «Yashil kimyo» yo‘nalishi esa butunlay boshqa strategiyani ko‘zda tutadi – kimyoviy reaksiya va jarayonlarni olib borishda dastlabki materiallar va jarayonlar sxemasini har taraflama o‘ylab, shunday tanlash kerakki, zararli moddalar umuman ishlatilmasin. Shunday qilib, «Yashil kimyo» - o‘ziga xos «san'at» bo‘lib, nafaqat kerakli moddani olishga, balki uni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan olishga imkon beradi. Hozirgi davrga kelib «Yashil kimyo»ning tarafdorlari soni O‘zbekistonda ham ortib bormoqda. Bunga misol tariqasida 2011 yil mart oyida Samarqand davlat Universiteti o‘tkazgan «Yashil kimyo barqaror rivojlanish maqsadida» deb nomlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini keltirish mumkin [3,4]. Yuqorida keltirilganlarni hisobga olgan holda «yashil kimyo» mavzularini oliy ta'lim talabalari uchun ishlab chiqish dolzarb masala ekanligini ta'kidlash lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. «Yashil kimyo» - kimyoda yangicha fikrlash, yangi konsepsiya, kimyoning yangi «tili» demakdir [5]. Uning vazifasi – zararli chiqindilarsiz, yoki ularning miqdorini minimallashtirgan holda yangi texnologiyalarni yaratishdan iborat. Respublikamizda kimyo sanoati rivojlangan sohalaridan hisoblansada, biroq, sanoat aksariyat sovet davrida rivojlangan bo‘lib, u davrda ekologiya masalalari hozirgidek o‘tkir tus olmagan edi. Tabiatni muhofaza qilish nafaqat MDH mamlakatlarida [6], balki O‘zbekistonda ham o‘zining to‘liq yechimini topmagan muhim dolzarb masaladir. «Yashil kimyo» g‘oyasi respublikamiz kimyogar-tadqiqotchilari, muhandislari uchun hech qachon begona bo‘lmagan bo‘lsada, biroq, uning prinsiplarini mutaxassislarining izlanishlarida qo‘llanilishini tahlil qilish va uni baholash maqsadga muvofiq tarzda o‘tkazilmagan.

Ekologik ta'limda «yashil kimyo» prinsiplariga asoslangan yangi yondoshishni shakllantirish uchun «Yashil kimyo» innovasion ta'lim dasturini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. «Yashil kimyo» kursining mavzularini ishlab chiqish va ularni o‘qitish masalalari hozirgi pedagogik ta'limning eng dolzarb masalalaridan biridir [7]. Ushbu ishning maqsadi «Kimyoviy ekologiya» kursida talabalarga notanish bo‘lgan «yashil kimyo prinsiplari»ning ma'ruza matnini va uni o‘qitish metodikasini ishlab chiqishdan iborat. Shu vaqtgacha ushbu yo‘nalish bo‘yicha ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan sanoqli holatlarni aytish mumkin [5, 8]. «Yashil kimyo» kursini o‘qitish masalalarini konseptual muhokama qilishni hisobga olish kerak. Bu degan so‘z, ushbu kursni

alohida va majburiy tarzda emas, balki tanlab, boshqa kurslar bilan birgalikda, masalan, «kimyoviy ekologiya», «sanoat ekologiyasi», «organik kimyo», «analitik kimyo», «bioorganik kimyo» kurslari tarkibida o'qitish tavsiya etiladi.

Kursning ma'ruzalari tarkibiga hozirgi zamonaviy kimyo sanoati, uglevodorod xom ashyosi manba'larining cheklanganligi, kimyoviy mahsulot ishlab chiqarishda «yashil kimyo»ning tutgan o'rni, «yashil kimyo» va ekologiyaning o'zaro bog'liq taraflariga tegishli mavzular kiritilishi kerak. Quyidagi ma'ruza matni - qator adabiyotlarni tahlil qilish natijasida yakuniy ko'rinishga keltirilgan. Ma'ruzani «Kimyoviy ekologiya» fanining ma'ruzalari qatorida kimyo va biologiya yo'nalishlari talabalari uchun o'qish tavsiya etiladi.

Yashil kimyo va uning prinsiplari (ma'ruza matni)

Reja:

- 1.«Yashil kimyo» yo'nalishi haqida tushuncha.
- 2.«Yashil kimyo» prinsiplari – ishlab chiqilishi tarixi va mohiyati.
- 3.«Yashil kimyo» prinsiplarining amalda qo'llanishi.

Tayanch so'zlar: «Yashil kimyo», «Yashil kimyo» prinsiplari, kimyoviy ekologiya, atrof-muhitning ifloslanishi, biotexnologiya, superkritik suyuqliklar, ionli suyuqliklar.

1.«Yashil kimyo» yo'nalishi haqida tushuncha. Xom ashyo zahiralarni oqilona ishlatish, energiyani iqtisod etish, atrof-muhitni muhofaza qilish, texnologik avariylarning oldini olish va bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni boshqarish – maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ma'lumotli mutaxassislarning ushbu jarayonlarda faol ishtirok etishini talab etadi. Shuning uchun hozirgi davrdagi ta'limning maqsadi mas'ul insonlar bo'lib yetishuvchi va global hayotiy qadriyatlarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash bo'lishi kerak. Bunda tadqiqotchi-kimyogar, pedagog-kimyogar va muhandis-kimyogarlarning alohida o'rnini ko'rsatib o'tish joiz, chunki atrof-muhit muhofazasi va «yashil kimyo» jamiyatning barqaror rivojlanishga o'tishida real yordam berishi mumkin.

XX-asrning 90-yillarida vujudga kelgan «Yashil kimyo» (Green Chemistry) ilmiy yo'nalishi atrof-muhitga ijobiy ta'sir etuvchi kimyoviy jarayonlarni har qanday mukammallashtirishni o'rganadi. Ko'pchilik mamlakatlar laboratoriyalarida ishlab chiqilayotgan kimyoviy reaksiya va jarayonlarning yangi sxemalari ko'p tonnajli kimyo sanoatining atrof-muhitga ta'sirini kardinal kamaytirishga qaratilmoqda. «Yashil kimyo»da kimyoviy reaksiya va jarayonlarni olib borishda dastlabki materiallar va jarayonlar sxemasi zararli moddalar umuman ishlatilmasligini ko'zda tutgan strategiyaga suyanadi.

2.«Yashil kimyo» prinsiplari – ishlab chiqilishi tarixi va mohiyati. 1998-yilda P.T.Anastas va Dj.S.Uorner o'zlarining «Yashil kimyo: nazariya va amaliyot» (Green Chemistry: Theory and Practice) [1] nomli kitobida «Yashil kimyo»ning 12 prinsipini keltirganlar:

- 1.Chiqindilarni qayta ishlagandan ko'ra, yo'qotishlarning oldini olish kerak;
- 2.Sintez usullarini shunday tanlash kerakki, jarayonda ishlatilgan barcha materiallar maksimal darajada oxirgi mahsulot tarkibiga kirsin;
- 3.Sintez usullarini shunday tanlash kerakki, ishlatilayotgan va sintez bo'layotgan moddalar inson va atrof-muhit uchun iloji boricha zararsiz bo'lsin;
- 4.Yangi kimyoviy mahsulotlar yaratayotganda ilgari erishilgan ish samarasini saqlab qolishga intilish kerak, bunda zaharlilik kamayib borishi zarur;
- 5.Erituvchi va yordamchi moddalarni yaxshisi umuman ishlatmaslik kerak, agar buning imkoni bo'lmasa, ularning ishlatilishi zararsiz bo'lishi lozim;
- 6.Energiya sarfi, mahsulot qiymatini hisobga olib, atrof-muhit temperaturasiga va bosimiga yaqin temperatura va bosimda sintez olib borish kerak;
- 7.Texnik va iqtisodiy jihatdan foydali bo'lgan har bir holatda dastlabki va sarf etiluvchi moddalar qayta tiklanuvchi xom ashyodan bo'lishi zarur;
8. Imkon qadar oraliq mahsulotlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'yimaslik kerak;
- 9.Har doim selektiv katalitik jarayonlarni afzal deb bilish kerak;
10. Kimyoviy modda ishlatilgandan so'ng atrof-muhitda qolib ketmasligi, xavfsiz mahsulotlarga ajralishi lozim;
11. Xavfli moddalar hosil bo'lishini analitik usullar orqali kuzatib borish kerak;
12. Ishlatiladigan moddalarni minimal xavfi (portlash, yong'in, gaz va suyuq moddalarning uchib va oqib ketishi) hisobga olingan holda tanlash kerak.

Ushbu prinsiplarning mohiyati - sintez qilinishi, ajratib olinishi, yoki biror texnologik jarayon yordamida hosil qilinishi zarur bo'lgan mahsulotni olish va undan foydalanishda atrof-muhitga va inson salomatligiga zarar yetkazmaslikdan iborat. Bunday ko'rsatkichlarga erishish qiyin, va ba'zan texnologik jarayonlarni tubdan o'zgartirilishini talab qiladi. Biroq, yillar o'tib, mana shu prinsiplar amal qilinishi shart bo'ladigan qoidalar darajasiga yetadi.

3.«Yashil kimyo» prinsiplarini amalda qo'llash. O'tgan 100 yil davomida kimyo sanoati mislsiz rivojlanib, organik sintez mahsulotlari yiliga millionlab tonnani tashkil etadi. Yashil texnologiyalar ba'zi sohalarda yaxshi rivojlangan (masalan, metall nanozarrachalar), biroq, boshqa sohalarda ushbu texnologiyalar hozirgacha rivojlanish boshidadir (masalan, to'qimalar injeneriyasi uchun biomateriallar ishlab chiqish). Yashil sintezning ba'zi aspektlari bo'yicha bir nechta monografiyalar [9, 10] va tahliliy maqolalar [11, 12] chop etilgan.

Yashil kimyoning umumiy sintez usullari

Fizik-kimyoviy usullar. Xavfli erituvchilar qo'llashni talab qilmaydigan, sintez jarayonlarini tezlashtiruvchi quyidagi fizik usullar hozirgi davrda ko'rib chiqilmada: mexanosintez, mikroto'qlinli reaksiyalar, gidrotermal (sol'votermal) reaksiyalar, ul'tratovush ta'siridagi sintez, yordamchi jarayonlar, reaksiyon sistemani UB nur bilan nurlantirish, magnit maydoni ta'siridagi sintez.

Mexanokimyoviy sintez. Kimyoviy reaksiyalar sferik tegirmonda olib borilishi natijasida mexanik energiya bilan boshqarilishi mumkin [13], bu usul, noorganik qattiq jismlarni qayta ishlash jarayonlarida qo'llanadigan klassik usulga qo'shimcha sifatida, organik kimyoda ham keng qo'llanadi [14]. Ushbu reaksiyalar erituvchisiz va xona temperaturasida amalga oshadi. Mexanokimyoviy sintezga misol sifatida polimerlar, aminokislota va peptidlar, koordinasion birikmalar, «sellyuloza-plastik» kompozitlari sintezi, asimmetrik organik reaksiyalar, hamda supramolekulyar kimyoviy reaksiyalarni keltirish mumkin.

Mikroto'qinli nurlanish. Ham organik, ham noorganik sintezda mikroto'qinli nurlanish yashil issiqlik manba'i bo'lib dipolyar qutblanishga asoslangan. Hozirda mikroto'qinli nurlanish sintetik kimyoning an'anaviy instrumentiga aylangan [15]. Ul'tra yuqori chastotali energiya ionizatsiyaga olib kelmaydigan nurlanish bo'lib, birikmalarning molekulyar tuzilishiga ta'sir o'tkazmaydi. Ushbu nurlanishning moddalarga ta'siri ularning dielektrik o'tkazuvchanligiga bog'liq, shuning uchun metanol, aseton, suv kabi moddalar ul'tra yuqori chastotali nurlanish ta'sirida tez isiydi.

Fotokataliz. UB nurlanish ta'sirida o'tadigan fotokimyoviy reaksiyalar organik sintezda reagentlarning reaksiya qobiliyatiga ta'sir qila oluvchi elektron qo'zg'aluvchanlikka asoslangan [16]. Fotokataliz singlet kislorod hosil bo'lishi va uning fotooksidatsiyada ishtirokini (molekulyar kislorodning molekula tarkibiga qo'shilishi), fotokimyoviy jarayonlarning fermentativ kataliz bilan birgalikda borishini, uzluksiz oqimlar yoki ularni optimallashtirish uchun mikroreaktorlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Misol sifatida furan hosilalarining fotooksidlanishi natijasida azot saqlagan murakkab geterosikllarni sintez qilish reaksiyalarini keltirish mumkin. Fermentativ asimmetrik oksidlanish va ftororganik moddalarni sintez qilish esa fotooksidlanish jarayonlari ta'sirida yengillashadi [17].

Gidrotermal (sol'votermal) sintez. Suvda o'tadigan gidrotermal reaksiyalar "yashil kimyo" maqsadlariga mos keladi, ekologik toza va turli materiallarni (kukunlar, plyonkalar, seolitlar, qimmatbaho toshlar, nanokristallar va boshqalar) ishlab chiqarishda keng qo'llanadi. Bu usul reagentlarning ortiqcha sarf bo'lishining oldini oladi va reaksiyani yuqori unum bilan olib borish imkonini beradi [18].

Ul'tratovush yordamidagi sintez (sonokimyoviy sintez) – faqat eritmalarda o'tadi, chunki kavitatsiya faqat suyuqlikda sodir bo'ladi. Bu usul akustik kavitatsiya asosida ishlaydi, ya'ni suyuqlikda hosil bo'ladigan pufaklarning o'sishi va yorilishi natijasida hosil bo'ladigan lokal bosim (1000 atm) va temperatura (5000°K) kimyoviy bog'larning energiyasiga ta'sir etmaydi. Bunday sharoitlarda erkin radikallar va H₂O₂ ning hosil bo'lishidan tashqari, kimyoviy reaksiyalar boshlanishi va kuchlanib ketishi kuzatiladi. Ul'tratovush ta'siridagi sintez [19] va funksional materiallarni tayyorlash [33] – "yashil kimyo" sohasiga mos klassik yutuqlardandir [20], chunki ushbu jarayonlar uchun ko'p miqdorda energiya va xavfli kimyoviy moddalardan foydalanish talab etilmaydi. Masalan, ul'tra tovush ta'sir ettirilganda grafitni olmosga aylantirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. P.T.Anastas, J.C.Warner. Green Chemistry: Theory and Practice / New York: Oxford University Press. – 1998. – P.30.
2. Ryoji Noyori. Pursuing practical elegance in chemical synthesis // Chemical Communications. – 2005. – 14. – P.1807–1811.
3. Бобоёров Д., Мухаммаджонова Г.М., Далимова Г.Н. Разработка образовательной программы «Зеленая химия - химия в интересах устойчивого развития» // Материалы I Респ. конф. с межд. участием «Зеленая химия» - в интересах устойчивого развития, Самарканд, 2012. - 26-28 марта, С.505-507.
4. Бозорова Д., Джуманова З.К., Далимова Г.Н. Концепция современного направления «зеленая химия» в контексте исследований сорбционных свойств технических лигнинов и их производных // Материалы I Респ. конф. с межд. участием «Зеленая химия» - в интересах устойчивого развития, Самарканд, 2012. - 26-28 марта, С.14-16.
5. Савицкая Т.А., Леонтьев А.П., Кимленко И.М., Гриншпан Д.Д., Драшар П., Лам Т.Д., Лан Ф.Т. Преподавание зеленой химии: взгляд из Беларуси через призму мировых тенденций // Журнал Белорусс. гос. университета. Химия. – 2022. - №2. - С.83-94.
6. Тарасова Н.П., Макарова А.С., Вавилов С.Ю., Варламова С.Н., Щукина М.Ю. Зелёная химия и российская промышленность // Вестник Российской Академии Наук. - 2013. - том 83. - №12. - С.1-8.
7. Xaliknazarova N.Z., Suyunov S.A., Kurbanova A.D. "Yashil kimyo" goyalarini oqitishda ekologik yondashish // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – V.3. - №4. – P.1133-1139.
8. Луинин В.В., Локтева Е.С., Голубина Е.В. Инновационные образовательные программы в области химии. Научно-образовательный центр. «Химия в интересах устойчивого развития – зеленая химия» / М.: Изд-во МГУ. - 2007. – 117С.
9. Sheldon RA, Isabel Arends UH. Green chemistry and catalysis / Weinheim, Germany. – Wiley-VCH. - 2007.
10. Zhang L, Gong C, Bin D. Green chemistry and technologies / Berlin, Germany. - Walter de Gruyter GmbH & Co KG. - 2018.
11. Makone S.S., Niwadange S.N. Green chemistry alternatives for sustainable development in organic synthesis // Green Chem. – 2016. – P.113–115.
12. Hossein J., Ensieh G.L., Roshanak R-M., Thomas W. A review of using green chemistry methods for biomaterials in tissue engineering // Int. J. Nanomedicine 2018. – 13. – P.5953–5969.
13. Ranu B., Stolle A. Ball milling towards Green synthesis: applications, projects, challenges / Johnson Matthey Technol Rev. – 2016. – 60. – P.148–150.
14. Margetic D., Štrukil V. Mechanochemical organic synthesis, 1st edn. / The Netherlands. - Amsterdam. - 2016. - Elsevier. – 371P.
15. Ravichandran S., Karthikeyan E. Microwave synthesis — a potential tool for green chemistry // Int. J. Chem.Tech. Res. – 2011. – 3. – P.466–470.
16. Glasing J., Champagne P., Cunningham M.F. Current opinion in Green and sustainable chemistry graft modification of chitosan, cellulose and alginate using reversible deactivation radical polymerization (RDRP) // Curr. Opin. Green Sustain. Chem. - 2016. – 2. – P.15–21.
17. Ardila Arias A.N., Arriola E., Reyes Calle J., Berrio Mesa E., Fuentes Zurita G. Mineralización de etilenglicol por fotofenton asistido con ferrioxalato // Rev. Int. Contam. Ambient. – 2016. – 32. – P.213–226.
18. Xu Y., Ren B., Wang R., Zhang L., Jiao T. Facile preparation of rod-like MnO nanomixtures via hydrothermal approach and highly efficient removal of methylene blue for wastewater treatment // Nanomaterials. – 2019. - 9. – P.10.
19. Mason T.J. 2000 Ultrasound in synthetic organic chemistry // Chem. Soc. Rev. – 2000. – 26. – P.443–451.
20. Puri S., Kaur B., Parmar A., Kumar H. Applications of ultrasound in organic synthesis — a Green approach // Curr. Org. Chem. – 2013. – 17. – P.1790–1828.



UDK:541.64.678.58.002.61

Baxtiyor YODGOROV,
Chirchiq davlat pedagogika universitetining kimyo kafedrasida katta o'qituvchisi
Kamariddin KOMILOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti kimyo kafedrasida dotsenti, t.f.n.
E-mail: qkomil65@mail.ru
G'afurjon MUHAMEDOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, prof.,k.f.d

O'zMU k.f.d I.Sh.Yuldashev taqrizi asosida

ПОЛУЧЕНИЕ ВОДНЫЕ ЭМУЛЬСИИ ИЗ НЕСТЕХИОМЕТРИЧНЫХ ИНТЕРПОЛИМЕРНЫХ КОМПЛЕКСОВ И КОМПОЗИТОВ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ

Аннотация

В данной статье анализируются получение водные эмульсии из нестехиометричных интерполимерных комплексов (ППК) на основе карбамидоформальдегидных олигомеров (КФО) и натриевой соли карбоксиметилцеллюлозы (Na-KMЦ) и изучение их состав и свойства, и применение как поглощающая элемента воды и улучшающая соле обменного процесса почвы. Показано что по результатам исследований установлено, что при поливах хлопчатника через противofiltrационный экран из ППК, созданный на поверхности почвы, глубинная фильтрация воды ниже расчетного слоя, уменьшается на 30–35 % от поливных норм.

Ключевые слова: полимер - полимерные комплекс (ППК), карбамидоформальдегидная олигомер (КФО), натриевая соль карбоксиметилцеллюлозы (Na-KMЦ), поглощающая элемент, соле обмен.

PREPARATION OF AQUEOUS EMULSIONS FROM NONSTOICHIOMETRIC INTERPOLYMER COMPLEXES AND COMPOSITES AND THEIR APPLICATION

Annotation

This article analyzes the preparation of aqueous emulsions from nonstoichiometric interpolymer complexes (NIPCS) based on urea-formaldehyde oligomers (CFO) and the sodium salt of carboxymethylcellulose (Na-CMC) and the study of their composition and properties, and their use as an absorbing element of water and improving the salt exchange process of the soil. It is shown that according to the research results, it was found that when watering cotton through an anti-filtration screen made of NPC created on the soil surface, deep water filtration below the calculated layer decreases by 30-35% of irrigation norms.

Key words: nonstoichiometric interpolymer complex (IPC), urea-formaldehyde oligomer (CFO), sodium salt of carboxymethylcellulose (Na-CMC), absorbing element, salt exchange.

OLISH SUV EMULSIYALARI STOKIYOMETRIK BO'LMAGAN INTERPOLIMERIK KOMPLEKSLAR VA KOMPOZITLARDAN VA ULARDAN FOYDALANISH

Аннотация

Ushbu maqolada karbamid-formaldegid oligomerlari (KFO) va karboksimetilseluloz natriy tuzi (Na-KMC) asosida stokiometrik bo'lmagan interpolimer komplekslaridan (NIPK) suv emulsiyalarini olish va ularning tarkibini o'rganish tahlil qilinadi va xususiyatlari va suvning yutuvchi elementi sifatida qo'llanilishi va tuproqning metabolik jarayonining tuzini yaxshilaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tuproq yuzasida yaratilgan NIPK filtrlashga qarshi ekran orqali paxtani sug'orishda, hisoblangan qatlam ostidagi suvning chuqur filtratsiyasi sug'orish stavkalarining 30-35% ga kamayishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: stokiometrik bo'lmagan interpolimer kompleksi (IPK), karbamidformaldegid oligomeri (KFO), karboksimetilseluloz natriy tuzi (Na-KMC), elementni yutuvchi, tuz almashinuvi.

Kirish. So'nggi yillarda karboksimetil tsellyuloza (CMC) va azot o'z ichiga olgan polimerlarga asoslangan interpolimerik komplekslar yangi materiallar sifatida tobora keng qo'llanilmoqda, bu ularning kimyosi va tuzilish kinetikasi o'rganishga qiziqishni oldindan belgilab beradi. Ushbu pozitsiyalardan eng istiqbolli mahsulotlar KMC va karbamid-formaldegid qatroni (MFS) asosida, KMC\MFS tarkibiy qismlarining nisbati bilan, ya'ni ortiqcha MFS asosida olingan mahsulotlar bo'lib, ular hozirda o'rganilmagan. Shuningdek, kompleksni yaxshilash usullaridan biri IPC xususiyati ularning turli xil plomba moddalarini kiritish orqali fizik modifikatsiyasi bo'lib, bu xalq xo'jaligi uchun ushbu interpolimerik kompozitsion materiallardan foydalanishda muhim bo'lgan kuch, qattqlik, issiqlikka chidamlilik, suvga chidamlilik va boshqa bir qator xususiyatlarni oshirishga imkon beradi [1].

Strukturaviy polimerlar va boshqa meliorantlar tuproqlarning agrofizik xususiyatlarini va birinchi navbatda ularning tuzilishini yaxshilaydi. Natijada, tuproqlarning suv o'tkazuvchanligi oshadi, ularning aeratsiyasi, eroziyaga qarshi va deflyatsiyaga qarshi qarshilik, mikroflora uchun maqbul sharoitlar yaratiladi va o'simliklar uchun mavjud bo'lgan ozuqa moddalarining tarkibi oshadi. Bularning barchasi tuproq unumdorligining oshishiga, hosilning hosildorligiga, eroziya va deflyatsiyaning pasayishiga olib keladi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon amaliyotida eroziya, deflyatsiya va xavfli erlarning sirtini mustahkamlash, shuningdek eroziya jarayonlarini kamaytirish va tuproqni yuvish uchun interpolimer komplekslari (IPK) muvaffaqiyatli

qo'llanilmoqda [2]. Dispers tizimlarning polimer tuzilishi sohasidagi zamonaviy yutuqlar IPKni tuproqning samarali tarkibiy tuzilishi sifatida tavsiya etishga imkon beradi. IPKning strukturaviy ta'siri uning tarkibiy qismlarining tuproq zarralariga yuqori yaqinligi bilan bog'liq bo'lib, bu ularning tuproq zarralari yuzasida optimal adsorbsiyasini va katta shamol va suvga chidamli agregatlar hosil bo'lishi bilan bog'lovchi ta'sirini ta'minlaydi. IPCni qo'llash texnologiyasi polimer bog'lovchilarni qo'llashning ikkita usulidan foydalanishni o'z ichiga oladi: yomg'irlatish – IPC suv-tuz eritmalarini tuproq yuzasiga bir vaqtning o'zida qo'llash, so'ngra tuzni suv bilan yuvish [3] va ikki tarkibli eritma – qarama-qarshi zaryadlangan polielektrolitlarning suvli eritmalari tuproq yuzasiga ketma-ket qo'llaniladi [4]. Qo'llash usulidan qat'i nazar, tuproqni IPK eritmasi bilan ishlov berish natijasida tuproq zarralari yuzasida atmosfera hodisalariga, shamol o'tkazuvchanligiga va suvning eroziv ta'siriga chidamli havо o'tkazuvchan polimer-tuproq qobig'i hosil bo'ladi.

IPC sirtini qayta ishlash tuproqning makrostrukturaviy holatini, uning suv va havо rejimlarini yaxshilaydi, shuningdek o'simlik va mikrobiotaning o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi. IPC yordamida ozgina tuzilgan tuproqlarning sirtini mahkamlash qishloq xo'jaligi aylanmasiga past mahsuldor tuproqlarni kiritish imkonini beradi.

Bugungi kunda tuproqlarni polimer kompozitlari bilan tuzish sohasida tabiiy polimerlar ishtirokida IPK qo'llaniladi. Yuqori agregatsiya qobiliyati, uzoq muddatli ta'sir, toksik bo'lmagan, biomsoslashuv va biodegradatsiya – bu biopoli - o'lchovli komplekslarning asosiy afzalliklari bo'lib, ularni tuproqni mustahkamlovchi tarkibiy tuzilmalar orasida birinchi o'ringa olib chiqadi.

Agroekologik va meliorativ muammolarni hal qilish uchun ishlatiladigan turli xil tabiiy polimerlardan kation tipidagi tabiiy polielektrolit – xitosan (HTZ) qiziqish uyg'otadi. Jahon amaliyotida XTZ va uning komplekslari eroziv va deflyatsion xavfli erlar yuzasini mustahkamlash uchun tuproqning tarkibiy tuzilishi sifatida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda [5, 6, 7]. Biroq, adabiy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, poliakril kislotasi (PAK) bilan XTZ IPK va uning tuproq tuzilishi sifatida ishlatilishi haqida ma'lumotlar juda cheklangan [8, 9].

Ushbu ishda strukturaviy holati buzilgan tuproqning oziq qatlamining tuzilishini yaxshilash, uning eroziyaga qarshi chidamliligini oshirish, shuningdek agrofizik xususiyatlarini yaxshilash uchun polianion polikompleks – Na-KMC bilan birgalikda NIPK:F(fosfogips) gumusli erutmadagi emulsiyasi ishlatilgan.

Ishning maqsadi – NIPK:F aralashmasining suvli emulsiyasini hosil qilish qonuniyatlarini o'rganish. Olingan emulsiyasini tuproqning oziq qatlamini suvga bo'lgan ehtiyojini kamaytirish va tuproda suv-tuz muvozanatini yaxshilash, qo'llanilganda uning siqilish xususiyatlarini va eroziyaga qarshi ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Laboratoriya tadqiqotlari obyektini Buxoro viloyati Romitan tumanidagi fermer xo'jaliklarining sho'rlangan tuprog'i bo'ldi. Viloyat iqlimi kontinental va yarim quruq. O'rtacha yillik harorat 17,1 °C, issiq davr 300 kun davom etadi, yiliga 150-200 mm yog'in yog'adi. Ushbu tuproqlarda namlikni to'plash va saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda va mineral va organik o'g'itlarni qo'llashda turli xil ekinlarni, asosan don (paxta, bug'doy, makkajo'xori, arpa) muvaffaqiyatli etishtirish mumkin. Tuproq tuzilishini tahlil qilish quruq va ho'l elakdan o'tkazish usullari bilan amalga oshirildi. Tuproqning agrokimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash: gigroskopik namlik, namlik sig'imi, dolzarb va metabolik kislotalilik, suv o'tkazuvchanligi, almashinadigan fosfor va ammoniy miqdori, gumus miqdori [10] ga muvofiq amalga oshirildi.

NIPK:F suvli emulsiyasini tadqiqot qilinishi. NIPK ni sintez qilish Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Interpolimer kompleks va kompozit material" (IPK-KM) ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida adabiyotlarda mavjud bo'lgan metodika asosida sintez qilindi. F – Olmaliq shahridagi "Ammofos-Maksam" OAU chiqitxonasidan olingan namunalar asosida foydalanildi. 0,1 molyarli NIPK+F aralashmasini eritmasi emulsiyasi tayyorlandi va laboratoriya tajribalari IPK-KM tajriba markazida amalga oshirildi. Bunda NIPK suvning fil'trlanishini oldini olsa, fosfogips tuproqning sho'rlanishini kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatfidi va bu olib borilgan laboratoriya tajribalari asosida tasdiqlandi.

NIPK+F eritmasiga qishloq xo'jaligi ekinlari agrotexnologiyasi bo'yicha ko'rsatilgan belgilangan me'yorlar miqdorida mineral (azot, fosfor, kaliy) qo'shilishi bilan[9]. IPK polimer birikmalarining keng sinfidir, ular nafaqat olingan materiallarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini nozik sozlash zarur bo'lgan[10,11] sohalarda, balki qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligida ham amaliy qo'llanilishini topadi. Qishloq xo'jaligida KMC (karboksimetilseluloz) + KFO (karbamido-formaldegid qatroni) asosida IPK dan foydalanish katta ahamiyatga ega, chunki polikomplekslar yuqori mahkamlash qobiliyatlarini tufayli har qanday ma'lum polimerlarga nisbatan eng muhim ustunlikka ega. Ulardan foydalanishning texnologik va iqtisodiy foydalari bir qator agrofizik va melioratsiya muammolarini hal qilishda paydo bo'ladi [12,13]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, paxtani tuproq yuzasida hosil bo'lgan IPK filtrlashga qarshi ekran orqali sug'orishda suvning hisoblangan qatlam ostidagi chuqur fil'tratsiyasi sug'orish me'yorlarining 30-35% ga kamayishi aniqlandi[14].

Tahlil va natijalar. IPK va NIPK sintezi dastlabki makromolekulyar komponentlarni aralashtirish usuli bilan amalga oshirildi. Dastlabki polimerlarning ekvimolyar eritmalari-suvda eriydigan KFS(0,1 M suv eritmasida) va CMC IPK (suv): KMS ning mol nisbatlarida aralashtirildi: 1 : 1,1; 1 : 1,2; 1 : 1,3; 1 : 1,4; 1 : 1,5 xona haroratida [15, 16].

IPK : KMS tuzilishi va tarkibi: fizik-kimyoviy usullarni o'rganish kombinatsiyasi bilan o'rganildi[17]. Eksperimental ma'lumotlar kompleksning xossasi-tarkibi bog'liqligi grafiklari shaklida taqdim etildi. NIPK kompozitsiyalari egri chiziqdagi egilish yoki ekstremum nuqtalari bilan aniqlandi.

Polimerlar va NIPKning IQ spektrlari 400 dan 4000 sm^{-1} gacha bo'lgan hududda ATR-pristavka bilan jihozlangan Cary 660 Agilent (USA) IQ–Furye spektrometrida qayd etilgan.

IPK eritmalarining reologik xususiyatlarini o'rganish Rheolabqc, Anton Paar (Austria) aylanma viskozimetrida o'tkazildi. Polimerlar konsentratsiyasi 0,01 M bo'lgan IPK eritmalari reoviskozimetr stakaniga o'tkazildi va 1 dan 100 s^{-1} gacha bo'lgan kesish tezligida va 600 o'lchov nuqtalarida dinamik yopishqoqlikni o'lchadi.

Polimer plyonkalar polimer substratda asl polimerlar va IPK eritmalaridan erituvchini xona haroratida va normal atmosfera bosimida bug'lash orqali olingan.

IPK pardalar(plyonkalar)ning mexanik xususiyatlarini o'rganish xona haroratida TAXT plus Texture analyser (Stable Micro Systems, UK) qurilmasida P/5S yordamida 0,1 mm/s tezlikda siqish rejimida o'tkazildi.

IPK tuproqning sirt qatlamini qayta ishlash ikki eritmali usulda, suyultirilgan polimer eritmalarini tuproq yuzasiga buzadigan amallar shishasi yordamida ketma-ket qo'llash orqali amalga oshirildi. Tuproq yuzasiga marta purkaladi 0,01 M IPK eritmasi (0,1 M suvda) qo'llanildi, IPK so'rilganidan so'ng, 0,01 M NIPK eritmasi ishlov beriladigan tuproq yuzasiga teng ravishda sepildi. Polimerlar eritmalari mol nisbatida [IPK] : [KMC] = 1 : 1,1-1,5. Tov tuzilishini olish uchun Petri idishiga 0,25–

0,5 mm tuproq fraksiyasi 1,5 sm qatlam bilan quyildi, polimerlar va iPC bilan ishlov berish quyidagi variantlarda uch marta takrorlandi:

1. Nazorat (distillangan suv bilan ishlov berilgan tuproq).
2. Suvda eriydigan IPK bilan ishlov berilgan tuproq (havoli - quruq tuproq massasining 0,02%).
3. Suvda eruvchan KMS bilan ishlov berilgan tuproq (havoli-quruq tuproq massasining 0,01%).
4. IPK bilan ishlov berilgan tuproq (havoli-quruq tuproq massasining 0,01%, havoli-quruq tuproq nisbati [IPK] : [KMC]

= 1 : 1,1-1,5).

Olingan strukturalar xona haroratida 3 kun davomida quritilgan, keyin P5/S nasadka yordamida 0,01 mm/s tezlikda siqish rejimida TEXT texture analyser (Stable Micro Systems, UK) qurilmasi yordamida mexanik kuch sinovlari o'tkazildi.

Bizning tadqiqotimizda IPK: KMS va NIPK+F birinchi marta tuproq tuzilishini hosil qiluvchi vosita sifatida ishlatilgan. Shu munosabat bilan, birinchi bosqichda ipkni olish jarayonini amalga oshirish kerak edi : NIPK+F, uning tuzilishini o'rganish va tarkibini aniqlash.

NIPK+F eritmasiga qishloq xo'jaligi ekinlari agrotexnologiyasi bo'yicha ko'rsatmalarda ko'rsatilgan belgilangan me'yorlar miqdorida minerallar (azot, fosfor, kaliy) qo'shilishi bilan[17] IPK polimer birikmalarining keng sinfidir, ular nafaqat olingan materiallarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini nozik sozlash zarur bo'lgan[18] sohalarda, balki qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligida ham amaliy qo'llanilishini topadi.

Biz taklif qilayotgan yangi NIPK - neytral va ozgina ishqoriy muhitda eruvchanligi, shuningdek saqlash paytida eritmalarning uzoq muddatli barqarorligi tufayli NIPK (KFS+IPK) asosidagi polimer kompleksi KFS va KMC ni o'z ichiga olgan eritmalarni bitta idishda tayyorlashga imkon beradi. Bundan tashqari, IPK quruq shaklda (kukun shaklida) ham olinishi mumkin, u suvda yaxshi eriydi va saqlash va tashish uchun qulaydir. NIPK(KFS+IPK) plyonkasining suvga chidamliligini oshirish uchun tuproqqa qo'llanilishidan oldin pH eritmasi 1,5 - 2 gacha kamayadi, so'ngra tuproqda suvda eriydigan NIPK hosil bo'ladi. Amaliy nuqta nazardan, PPKni qishloq va suv xo'jaliklarida qo'llash juda katta ahamiyatga ega, chunki polikomplekslar eroziyaga qarshi yuqori mahkamlash xususiyatlari tufayli har qanday ma'lum polimerlarga nisbatan eng muhim ustunlikka ega.

Shu munosabat bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining (ChDPU) "Kimyo" kafedrasida o'qituvchilari va doktorantlari tomonidan tuproqning oziq qatlami ostida ekran yaratish uchun NIPK+F asosida olingiz suvli emulsiya yordamida 35-40 sm chuqurlikda polimer qatlam hosil bo'lishini ta'minlaydigan agregat ishlab chiqildi. Jihoz qator traktoriga osilgan o'rnatilgan shudgor moslamasidan iborat. Shudgor moslamasining har bir pichog'ining pastki qismida diametri 15 mm bo'lgan quvurlar payvandlanadi, 2-3 purkagich o'rnatilgan. PPK ning suvli eritmasi orqali beriladi yuqori bosimli shlanglar traktorga o'rnatilgan idishga ulangan. 2022-2023 yillarda biz Buxoro viloyati fermer xo'jaliklari dalalarida, engil tuproqli tuproqlarda alohida tajribalar o'tkazdik. Tajriba uchastkasining maydoni 1 gektar, nazorat uchastkasining maydoni 1 gektarni tashkil etdi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shamol va suv eroziyasiga moyil bo'lgan tuzilmasiz haydaladigan ochiq kashtan tuproqlarini birlashtirish uchun NIPK : F ning suvli emulsiyasidan foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi. IPK yordamida tuproqlarning polimer tuzilishi tuproq tuzilishini sezilarli darajada yaxshilaydi, tuproqqa eroziyaga qarshi qarshilik ko'rsatadi, tuproqning agrokimyoviy ko'rsatkichlarini yaxshilaydi va natijada uning unumdorligini oshiradi. IPCni tuproqni tarkibiy shakllantirish vositasi sifatida qo'llash natijalari ularning turli qishloq xo'jaligi tuproqlarida samaradorligini yanada o'rganish va o'simlik mahsulotlarining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun qiziqish uyg'otadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tuproqni sug'orish rejimlarini sirdagi filtrga qarshi ekran bilan o'rganish bo'yicha tajribalar natijalarini taqqoslashda tavsiya etilgan variant kamroq mehnat zichligi va yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi.

O'sish davrida fenologik kuzatuvlar o'tkazildi. Tajriba variantlari va nazorati bo'yicha paxta ekish 2022-2023 yillarda mos ravishda 10 va 15 aprel kunlari amalga oshirildi.

Kuzatuvlaridan ma'lum bo'lishicha, tajriba uchastkasining barcha variantlarida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha nazorat maydoni ma'lumotlaridan ustun turadi va paxta xomashyosining hosildorligi nazoratga qaraganda 8,0 ts/ga yuqori bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Ахмедов А.М. Физико-химические свойства интерполимерных композиционных материалов// "Экономика и социум" 2023. №6(109).
2. Мусабаева Б.Х., Кливенко А.Н., Касымова Ж.С., Оразжанова Л.К. Применение интерполимерных комплексов в экологических целях // Химический журн. Казахстана. 2018. № 4. С. 187–204.
3. Zezin A.B., Mikheikin S.V., Rogacheva V.B., Zansokhova M.F., Sybachin A.V., Yaroslavov A.A. Polymeric stabilizers for protection of soil and ground against wind and water erosion // Adv. Coll. Interf. Sci. 2015. V. 226. P. 17–23. <https://doi.org/10.1016/j.cis.2015.06.006>
4. Изумрудов В.А., Мусабаева Б.Х., Касымова Ж.С., Кливенко А.Н., Оразжанова Л.К. Интерполиэлектrolитные комплексы: достижения и перспективы // Успехи химии. 2019. Т. 88(10). С. 1046–1062.
5. Касымова Ж.С., Оразжанова Л.К., Кливенко А.Н., Мусабаева Б.Х., Асержанов Д.К. Получение и свойства интерполимерных комплексов, способных к структурообразованию почв // Журн. Прикладной химии. 2019. Т. 92(2). С. 208–217.
6. Aguilar R., Nakamatsu J., Ramirez E., Elgegren M., Ayarza J., Kim S., Pando M.A., Ortega-San-Martin L. The potential use of chitosan as a biopolymer additive for enhanced mechanical properties and water resistance of earthen construction // Construction and Building Materials. 2016. V. 114. P. 625–637. <https://doi.org/10.1016/j.conbuildmat.2016.03.218>.
7. Hataf N., Ghadir P., Ranjbar N. Investigation of soil stabilization using chitosan biopolymer // J. Cleaner Production. 2018. V. 170. P. 1493–1500. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2017.09.256>.
8. Gümüsoğlu T., Ari G.A., Deligöz H. Investigation of salt addition and acid treatment effects on the transport properties of ionically cross-linked polyelectrolyte complex membranes based on chitosan and polyacrylic acid // J. Membrane Sci. 2011. V. 376 (1–2). P. 25–34.
9. <https://doi.org/10.1016/j.memsci.2011.03.040>

10. Zakharova L.Ya., Vasilieva E.A., Gaynanova G.A., Mirgorodskaya A.B., Ibragimova A.R., Salnikov V.V., Uchegbu I.F., Kononov A.I., Zuev Yu.F. The polyacrylic acid/ modified chitosan capsules with tunable release of small hydrophobic probe and drug // *Colloids and Surfaces A: Physicochemical and Engineering Aspects*. 2015. V. 471. P. 93–100.
11. <https://doi.org/10.1016/j.colsurfa.2015.02.016>
12. Воробьева Л.А. Химический анализ почв. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1998. 272 с.
13. Комилов К.У. Нестехиометричные интерполимерные комплексы на основе мочевино - формальдегидной смолы и дисперсных наполнителей. // Дисс... к.т.н., Ташкент. ТИХТ, 2005. С. 100.
14. Хафизов М.М., Комилов Қ.Ў., Мухамедов Ғ.И., Мирзиёев Ш.М. Композицион материал.//Дастлабки патент. 1999 й. Бюл.№3.
15. Мухамедов А., Усманов Х., Комилов Қ.Ў. Суғориш сувини тежаща кимёвий мелиорантларнинг роли.//АГРО ИЛМ. 2013й.Т. №4. 55 б.
16. Mukhamedov G.I., Allayev J., Kurbanova A.Dj., Komilov K.U. Obtaining and application of composite materials based on polymer-polymer complexes and phosphogypse.// *Society and innovations*. 2021. №4. Pade 114-120.
17. Касымова Ж.С., Оразжанова Л.К., Кливенко А.Н., Мусабаева Б.Х., Асержанов Д.К. Получение и свойства интерполимерных комплексов, способных к структурообразованию почв // *Журн. Прикладной химии*. 2019. Т. 92(2). С. 208–217.
18. Kassymova Zh.S., Orazzhanova L.K., Bayakhmetova B.B., Gaisina B.S., Kassenova N.B., Yelemessova G.T. Preparation of interpolymer complexes of chitosan and sodium alginate // *Bulletin University Karaganda-Chemistry*. 2019. V. 93(1). P. 17–24. <https://doi.org/10.31489/2019Ch1/17-24>
19. Mukhamedov G.I., Xafizov M.M., Inagamov S.Ya. Interpolymer complexes. Structure, properties, application. LAP Lambert Academic Publishing, 2018. 200 p.
20. Mukhamedov G.I., Komilov K.U., Kurbanova A.Dj. New Technology of Cotton Sowing.// *Psychology and education*. 2021. 58(2): Pade 296-303.



УДК: 541.49+546.791.6

Холида ЖАББОРОВА,
Докторант ИОИХ АН РЎз
E-mail: Jabborova0707@gmail.com

Сардор МУРОДОВ,
Студент химического факультета Национального университета Узбекистана
Шахло ДАМИНОВА,
профессор Национального университета Узбекистана, д.х.н.

Рецензент PhD С.Рахимов

СИНТЕЗ И ИССЛЕДОВАНИЕ КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ УРАНИЛ ИОНА С 2-АМИНО-1-МЕТИЛБЕНЗИМИДАЗОЛОМ

Аннотация

Синтезированы и исследованы комплексные соединения уранил-иона с 2-амино-1-метилбензимидазолом (МAB) и диэтилдитиокарбаматом (DEDTK). Состав и строение полученных комплексных соединений установлены методами сканирующей электронной микроскопии с энергодисперсионным анализом, ИК-, Раман-спектроскопии, дифференциально-термическим анализом. Установлена зависимость состава, структуры и свойств комплексных соединений от природы комплексообразователя и способов координации лиганда.

Ключевые слова: комплексное соединение, диэтилдитиокарбамат натрия, 2-амино-1-метилбензимидазол, состав, структура, свойства.

URANIL IONINING 2-AMINO-1-METILBENZIMIDAZOL BILAN KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI VA TADQIQOTI

Uranil ionining 2-amino-1-metilbenzimidazol (MAB) va dietilditiokarbamat (DEDTK) bilan kompleks birikmalari sintez qilindi va o'rganildi. Hosil bo'lgan kompleks birikmalarning tarkibi va tuzilishi energo- dispersion analizli skanerlovchi elektron mikroskop, IQ, Raman- spektroskopiya, differensial termik tahlillar yordamida aniqlandi. Kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xossalaring kompleks hosil qiluvchining tabiatiga va ligandlarni koordinatsiyalanish usullariga bog'liqligi aniqlandi. **Kalit so'zlar:** Kompleks birikma, natriy dietilditiokarbamat, 2-amino-1-metilbenzimidazol, tarkibi, tuzilishi, xossa.

SYNTHESIS AND STUDY OF COMPLEX COMPOUNDS OF URANYL ION WITH 2-AMINO-1-METHYLBENZIMIDAZOLE

Annotation

Complex compounds of uranyl ion with 2-amino-1-methylbenzimidazole (MAB) and diethyldithiocarbamate (DEDTK) were synthesized and studied. The composition and structure of the resulting complex compounds were established using scanning electron microscopy with energy dispersive analysis, IR and Raman spectroscopy, and differential thermal analysis. The dependence of the composition, structure and properties of complex compounds on the nature of the complexing agent and methods of ligand coordination has been established.

Keywords: Complex compound, sodium diethyldithiocarbamate, 2-amino-1-methylbenzimidazole, composition, structure, properties.


Введение. Современное развитие координационной химии характеризуется увеличением использования комплексных соединений металлов с бидентатными полифункциональными органическими соединениями для разделения, концентрирования и количественного определения различных элементов. Успешное решение химических задач возможно при достаточно полной информации об оптимальных условиях образования комплексов [1]. За последнее десятилетие наблюдалось двукратное увеличение числа структурно охарактеризованных соединений урана. Одной из основных причин возобновления интереса к соединениям урана является их удивительная структурная универсальность. Безусловно, наиболее стабильной формой урана в большинстве условий переработки и окружающей среды является ион уранила $[UO_2]^{2+}$. В степенях окисления +III или +IV обычно встречаются восьми- или девятикоординационные окружения урана. Однако оксосоединения урана в степени окисления +VI образуют примерно линейные трехатомные ионы уранила UO_2^{2+} . Хотя этот катион может связывать дополнительные лиганды, расположенные перпендикулярно оси уранила, с образованием пяти-, шести-, семи- и восьмикординационных металлцентров, семикординация особенно преобладает для оксосоединений шестивалентного урана [2-4]. В зависимости от стерических требований, вызванных отталкиванием лиганд-лиганд, более слабыми связями и, обычно, пониженной стабилизацией кристаллического поля, гептакоординированные урановые центры могут иметь пентагональную бипирамидальную, закрытую октаэдрическую и закрытую тригонально-призматическую координационную геометрию. Структурные исследования уранильных соединений с одномерной топологией или многомерным каркасом довольно редко [5].

В данной работе изучено влияние лигандов, содержащие разные донорные атомы для изучения координационной геометрии металла.

Цель работы – синтезировать новое смешаннолигандное координационное соединение урана, содержащее диэтилдитиокарбомат-ион (DEDTK) и 2-амино-1-метил-1Н-бензимидазол (МAB), изучить их строение и свойства путем определения отношения между составом, структурой, свойствами.

Объекты и методы исследования. Для получения комплексов использовали $\text{UO}_2(\text{CH}_3\text{COO})_2$, диэтилдитиокарбомат натрия (L^1), а также 2-амино-1-метил-1Н-бензимидазол (L^2). В качестве растворителей использовали 96 % этанол. Используемые в работе органические реагенты и растворители очищали и высушивали известными методами [6].

Соединение $[\text{UO}_2(\text{L}^1)_2(\text{L}^2)]$ синтезировано по следующей методике: в колбе снабженной обратным холодильником и магнитной мешалкой при постоянном перемешивании при 40-50 °С нагревали реакционную смесь, содержащую этанольный раствор 0,001 моль уранилцетата и этанольный раствор 0,002 моль лиганда L^1 . Через полчаса к смеси по каплям добавляли этанольный раствор 0,001 моль лиганда L^2 . Полученную реакционную смесь перемешивали в течение 2 часов, после реакционную смесь отфильтровали и оставили для кристаллизации. Через несколько дней выпавший светло-жёлтый осадок промывали несколько раз этиловым спиртом и сушили при комнатной температуре. Выход основного продукта составил 72%.



В качестве методов исследования комплексного соединения использовались методы SEM-EDX (Zeiss EVO MA 10, Carl Zeiss, Германия), термический анализ (Thermo Scientific GC1310 combined Tsq 9000_TA), ИК - (Perkin-Elmer, США) и раман спектроскопию (Horiba MacroRam).

Результаты и обсуждение. В настоящее время для определения количества элементов в синтезированных комплексах широко используется сканирующий электронный микроскоп SEM-EDS (рис.1) [7]. SEM микрофотографии показывают о том, что синтезированный комплекс имеет хорошо сформированную аморфную структуру, что подтверждают и полученные данные энергодисперсионного анализа. Пики, приписываемые урану, четко отличаются от соответствующих пиков, приписываемых другим элементам. На основании данных SEM и энергодисперсионного анализа можно заключить, что комплексообразование ионов металлов с органическими лигандами приводит к изменению микроструктуры лигандов.




Рис. 1. Микроструктура и элементный анализ SEM-EDS комплексного соединения $[\text{UO}_2(\text{L}^1)_2(\text{L}^2)]$

5. Авт. свид. № 929616 (SU). Способ получения не слеживающегося нитрата кальция. Л.Е.Кондратьевская, Р.А.Азимов, В.М.Беглов, В.В.Бутов и др. Оpubл. 23.05.1982. Бюл. № 19.
6. Авт. свид. № 1502551 (SU). Способ получения неслеживающегося нитрата кальция. М.Н.Набиев, К.Г.Садыков, Р.А.Азимов, А.М.Амирова, С.МТаджиев и др. Оpubл. 23.08.1989. Бюл. № 31.
7. Справочник азотчика. Изд. 2-ое, переработанное. М. Химия, 1987. С. 202-204.
8. Патент № 05606 (UZ). Способ получения жидкого азотно-кальциевого удобрения. Х.Ч.Мирзакулов, И.И.Усманов, С.А.Халмуминов, Г.Э.Меликулова. Оpubл. 29.06.2018. Бюл. № 6.
9. Винник М.М., Ербанова Л.Н., Зайцев П.И. и др. Методы анализа фосфатного сырья, фосфорных и комплексных удобрений, кормовых фосфатов. - М. Химия, 1974. – 218 с.
10. Кельман Ф.Н., Бруцкус Е.Б., Ошеревич Р.И. Методы анализа при контроле производства серной кислоты и фосфорных удобрений. -М.: Госхимиздат. 1982. - 352 с.
11. Шварценбах Г., Флашка Г. Комплексометрическое титрование. - М.: Химия. 1970. - 360 с.
12. Комплексная азотнокислотная переработка фосфатного сырья. 1 Гольдинов А.Л., Копылев Б.А., Абрамов О.Б., Димитревский Б.А. -Л.: Химия, 1982. - 207 с.
13. Набиев М.Н. Азотно-кислотная переработка фосфатов. – Ташкент.: ФАН, 1976, 818 с.
14. Дмитриевский Б.А. Физико-химические и технологические основы азотно-кислотной переработки фосфатного сырья. – Дисс. ... докт. техн. наук. – Л., 1980, 126 с.
15. Кахаров Э.М., Сейтназаров А.Р., Мирсалимова С.Р., Намазов Ш.С. Механическая активация фосфоритной руды в присутствии азотных солей. Труды республиканской НПК., Ташкент, 2022. – С. 69-71.



UDK:54.05.331.1+541.65.428(5u)ya7

Kurbonkul KARIMKULOV,
Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti professori, texnika fanlari doktori
E-mail: karimkulov@mail.ru
Ikromjon UZAQOV,
Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali katta o'qituvchisi

Bojxona qo'mitasi boshqarma boshlig'i, PhD R. Murzayev taqrizi ostida

CHOY ASSORTIMENT TURLARI, KIMYOVIY TARKIBI VA TIF TN BO'YICHA TASNIFLASH USULLARI

Annotatsiya

Tadqiqot ishida choy turlari tahlil qilindi ularning kimyoviy tarkibi o'rganildi hamda TIF TN bo'yicha tasniflash me'zonlari ishlab chiqildi va bojxona amaliyotiga tavsiya etildi. O'rganilgan choy mahsulotlari tarkibida, B 2 vitamin miqdori meyor talablaridan kam ekanligi, yangi bazi bir namunalar tarkibida efir moylarining miqdori belgilangan meyordan 1,5 barobar ko'p ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar, choy, qora va kok choy assortimentlari, efir moyi, tasniflash, Tovarlar nomenkulatortasi, kimyoviy tarkibi, vitaminlar.

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ, ВИДЫ ЧАЙНОГО АССОРТИМЕНТА И МЕТОДЫ КЛАССИФИКАЦИИ ПО ТИФ ТН

Аннотация

В данной работе исследована химический состав и проанализирована сорта чая, а также разработаны и рекомендованы для таможенной практики критерии классификации ТИФ ТН. В составе чайной продукции количество витамина В₂ оказалась меньше требуемой нормы, т.е. было выявлена количество эфирных масел в некоторых образцах оказалось больше предусмотренных норм в 1,5 раза.

Ключевые слова: чай, assortimenty черного и зеленого чая, эфирное масло, классификация, товарная номенклатура, химический состав, витамины.

TYPES OF TEA ASSORTMENT, CHEMICAL COMPOSITION AND METHODS OF CLASSIFICATION BY TYPH TN

Annotation

In the research work, types of tea were analyzed, their chemical composition was studied, and classification criteria according to TIF TN were developed and recommended for customs practice. It was established that the amount of vitamin B₂ in the studied tea products is less than the standard, that is, the amount of essential oils in some samples is more than the standard, that is, 1.5 times more.

Key words- tea, black and green tea assortments, essential oil, classification, nomenclature of goods, chemical composition, vitamins.

Choy (Thea) - 1) choydoshlar oilasiga mansub ko'p yillik doim yashil butalar yoki daraxtlar turkumi. Vatani — Janubiy Osiyo. Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Shri Lanka, Keniya, Argentina asosiy choy yetishtiruvchi mamlakatlar qatorida turadi. Jahon bo'yicha ekin maydoni 2291 mingga, hosildorligi 1254 kg/ga, yalpi hosili 2872 ming t (1999). ikki turi bor. Xitoyning (T.sinensis; Jan. Sharqiy Osiyoning tog'li hududida tarqalgan) butasimon, bo'yi 1 - 3 m, sershox, bargining uzunligi 10 sm gacha, shakli ponasimon chuzinchoq

Buyuk Britaniyada an'anaviy ingliz tushlik va kechki ovqat o'rtasidagi tanaffus haddan tashqari uzoq deb qaror qilgan Bredford gertsogining imzosi bilan 1840 yildan beri choy marosimi majburiy milliy marosimga aylantirildi. Mahalliy vaqt bilan soat 17.00 da u yerda "fyff o klok" deb nomlangan butun Buyuk Britaniya choy stolida o'tirishadi; Statistika ko'ra, 200 million stakan choy britaniyaliklar tomonidan bir kunda ichiladi (o'rtacha har biri 4,5 stakan). Bu ular ishlatadigan suyuqlikning yarmi.

Xitoyning eng mashhur qora choyi (turlari, nomlari):

1. Anhui Qihong.
2. Dianxon.
3. Tsimen Xuncha.
4. Isin Xuncha.
5. Laosong Xiaozhong.

Qora choy: tarkibi, xususiyatlari, turlari va markalari

Qora choyning tarkibi va kaloriya tarkibi. Ichimlikning foydali xususiyatlari va mumkin bo'lgan kontrendikatsiyasi. Qanday qilib to'g'ri choyni tanlash va qora choyni qanday tayyorlash mumkin? Foydalanish xususiyatlari.

Qora choy, mubolag'asiz, yer yuzidagi eng mashhur ichimlikdir. Hatto qahva ham, insoniyat uni juda sevadi, faqat ikkinchi o'rinda! Hisob -kitoblarga ko'ra, har kuni 2 milliarddan ortiq chashka tinchlantiruvchi, tetiklantiruvchi, iliqlantiruvchi va ilhomlantiruvchi ichimlikni iste'mol qiladi

QORA CHOY TURLARIGA KO'RA KALORIYA TARKIBI

1-Jadval

Qora choyning kaloriya tarkibi jadvalda keltirilgan	
Ichimlik turi	100 ml uchun energiya qiymati, kkal
Shakar yoki boshqa qo'shimchalarsiz qora choy	0-1
Bergamot, oregano, yalpiz, smorodina barglari, kekik bilan qora choy	2-3
Qora choy rezavorlar bilan (asal, smorodina, malina)	3-4
Limonli qora choy (1-2 bo'lak)	4-5
Tabiiy asalli qora choy (1 choy qoshiq)	25
Sutli kam yog'li qora choy (3 osh qoshiq)	35
Shakar bilan qora choy (2 osh qoshiq)	65
Quyultirilgan sutli qora choy (2 osh qoshiq)	80

Masalan, qora choy tarkibida A, B1, B2, B15, C, K, P, PP vitaminlari mavjud bo'lib, ularning har biri organizmda o'z vazifasini bajaradi. Ba'zilar asab tizimiga foydali ta'sir ko'rsatadi, boshqalari gematopoez jarayonlarida ishtirok etadi, boshqalari buyrak usti bezlarining faoliyatini tartibga soladi, xolesterin darajasini pasaytiradi, ozuqa moddalarining so'rilishiga yordam beradi. Albatta, bitta chashka o'z-o'zidan sizning farovonligingizga ta'sir qilmaydi, lekin shifobaxsh ichimlikdan muntazam foydalanish tanani tobora ko'proq vitaminlar bilan ta'minlashga imkon beradi.

Achitilgan choy barglarida polifenollarning - antitumor ta'siriga ega moddalarning mavjudligi. Bu mavzu bo'yicha qiziq tadqiqotlardan biriga misol qilib, biz Xitoyning Fujzyan provintsiyasidagi "choy Makk" sida ayollarning sog'lig'ini kuzatish natijalarini keltirishimiz mumkin, bu shuni ko'rsatdiki, bu erda yashovchi ayollarning qurbon bo'lish ehtimoli uch baravar kam. boshqa ayollarga qaraganda ko'krak bezi saratoni. Albatta, xushbo'y ichimlikni onkologiyani davosi deb bilmaslik kerak, lekin uni yoqimli va oson oldini olish vositasi sifatida ishlatish o'rinli.

Choyning foydali xususiyatlari - eng foydali choyning TOP-8 turlari

Ko'pchilik o'z hayotlarini bir chashka choysiz tasavvur qilmaydi. Ba'zi mamlakatlarda bu ichimlik an'anaviy hisoblanadi, masalan, haqiqiy muxlislar inglizlardir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bir kishi yiliga taxminan 650 litr ichimliklar ichadi.

Choy uchun tananing foydalari

O'z lazzatlarida va o'zida turli xil navlar mavjud. Ularning ko'pchiligida antibakterial va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan hazm qilish tizimi va efir moylari uchun muhim bo'lgan tanin mavjud. Qizig'i shundaki, choydani foydasi bormi, ichimlik tarkibida muhim alkaloidlar mavjudligi aytiladi. Aminokislotalar, pektinlar, vitaminlar va minerallar bor.

Yashil choyning foydali xususiyatlari

Bu 4 ming yil davomida iste'mol qilinadigan eng mashhur choylardan biridir. Ko'p odamlar, bir butadan, qora, qizil va boshqa choy kabi barglarni to'plashayotganini bilishmaydi. Barcha shoxchalar qayta ishlash turiga kiradi. Tana uchun yashil choyni ishlatish, barglarning fermentatsiyalanishi va ho'llanishi mumkin emasligi sababli, ular muhim moddalarning maksimal miqdorini saqlab qoladilar.

1. Biologik faollikni oshiradi, chunki u vitaminlarni o'z ichiga oladi.
2. Bu asab tizimining muammolarini mukammal darajada oldini olish, shuningdek diqqatni jamlashga yordam beradi.
3. Choyning foydali xususiyatlari qon aylanish tizimining holatini normalashtirish bilan bog'liq, chunki tomirlarning devorlari mustahkamlanadi. Gipertenziv bemorlarga bosimni pasaytirish tavsiya etiladi.
4. Emissiya tizimining ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qizil choy yaxshi

Agar siz o'ng qizil choyni sinashni istasangiz, unda siz o'simlik o'sib, Xitoyda qadoqlanganligini ko'rsatadigan paketlarni qidirishingiz kerak. Qizil choyning foydali xususiyatlari qadim zamonlardan buyon ma'lum bo'lib, u butun dunyoga mashhur bo'lib kelgan. Polisakkaridlar, kislotalar, aminokislotalar, pektinlar, efir moylari, vitaminlar va minerallarni o'z ichiga olganligi sababli, bu navning boy kimyoviy tarkibi mavjud.

1. Og'irligi kamayib ketishiga yordam beradigan metabolik jarayonlarning tezlashishiga yordam beradi.

2. Buyrakni yaxshilaydigan diuretik ta'sirga ega va ortiqcha suyuqlik tanasini tozalaydi.

3. Bu umumiy sog'liq uchun muhim bo'lgan tanadan toksinlarni olib tashlaydi.

4. Tonik ta'sirga ega va asabiy taranglikni bartaraf qiladi.

Puer choyi - foydali xususiyatlar

Xitoyda eng mashhur ichimliklar butun dunyo bo'ylab tarqalgan Puer. Ishlab chiqarish jarayonida choy barglari to'liq fermentatsiyaga uchraydi, bu uning ajoyib fazilatlarini aniqlaydi. To'g'ri qaynatilgan Puer tuxum ta'mini aylantiradi va asal va orkide eslatmani his qiladi. Aralashirilgan ba'zi navlarda choy barglari va xrizantema qo'shilgan.

Ovqat hazm qilish tizimining holatiga ijobiy ta'sir qiladi, bu esa kolik va hatto gastrit bilan bartaraf etishga yordam beradi.

1. Askorbin kislota mavjudligini hisobga olsak, ichimliklar immunitet tizimini mustahkamlaydi va sovuqni pasaytirish xavfini kamaytiradi.

2. Bachadonli choyning foydali xususiyatlari asab tizimining faoliyatini barqarorlashtiradi, ruhiy holatni yaxshilaydi va yomon kayfiyatni engishga yordam beradi.

3. Ichki yallig'lanish jarayonlarini bartaraf qilish, antibakterial ta'sirga ega.

Qalina bilan choy - foyda

Kalina gilamlari slavyanlar uchun an'anaviy davolanadi va ular nafaqat oshxona maqsadlari uchun, balki xalq retseptlarida ham qo'llaniladi. Ularning noyob kompozitsiyasi mavjud bo'lib, ularga ko'plab kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ulardan foydalanish imkoniyatini beradi va ular shuningdek organizmning himoya funksiyalarini kuchaytiradi, bu esa virus va bakteriyalarning salbiy ta'siriga qarshi turishga yordam beradi. Qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan foydali xossalari kalina bo'lgan choy bilan muntazam ravishda ichishga ruxsat beriladi.

1. Tarkibi immunitet tizimini mustahkamlovchi ko'plab S vitamini o'z ichiga oladi. Sovuq mavsumda ichimlik ichish tavsiya etiladi.

2. Taninlarning mavjudligi tufayli viburnum oshqozon tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Gilamlar gipertenziv bemorlar uchun foydalidir, chunki ular bosimni pasaytirishga yordam beradi.

2- jadval.


Choy tarkibida shakarining kaloriya miqdori

Choyda qancha kaloriya bor turli xil shakar shakarizis, choy va shakarining kaloriya miqdori ko'rsatilgan jadval:

№	kaloriya tarkibi	100 gramm nisbatan
1.	qadoqlangan	90 kkal,
2.	bosilgan varaq	151 kkal,
3.	bo'shashmasdan	130 kkal,
4.	donador	120 kkal,
5.	kapsula	125 kkal,



1- Rasm.Choy yetishtiruvchi davlatlar reytingi



2- Rasm.Choy istemol qiluvchi dunyo reytingi (axoli jon boshiga)

ГОСТ 1937-90


Ushbu standart mahalliy navli choy bargidan quritish, fermentatsiyani burish, keyin quritish va saralash orqali olingan qadoqlanmagan qora bayx choyiga nisbatan qo'llaniladi.

Organoleptik ko'rsatkichlar bo'yicha choy jadvalda ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak.

3- Jadval

Choy navlari tarkibi

Ko'rsatkich nomi	Choy navining xususiyatlari				
	"Guldasta"	eng yuqori	birinchisi	ikkinchi	uchinchisi
Xushbo'y hid va ta'm	To'liq guldasta, nozik nozik hid, yoqimli kuchli tort ta'mi	Nozik xushbo'y hid, yoqimli ta'm	Juda nozik xushbo'y hid, o'rta tortishish ta'mi	Etarlicha aniq bo'lmagan xushbo'y hid, nisbatan tort ta'mi	Zaif hid, zaif ta'm
Infuzion	Yorqin, shaffof, kuchli, "yuqori o'rta"	Yorqin, shaffof, "o'rta"	Etarlicha yorqin, shaffof, "o'rta"	Shaffof, "pastki o'rta"	Etarli darajada shaffof emas
Qaynatilgan bargning rangi	Bir xil, jigarrang-qizil		Bir hil emas, jigarrang	Heterojen, to'q jigarrang, yashil rangga ruxsat beriladi	Heterojen, to'q jigarrang
Choyning ko'rinishi (tozalash):					
barglar	Bir tekis, bir hil, yaxshi o'ralgan		Etarlicha tekis emas, o'ralgan	Notekis, etarlicha burilmagan	
kichik	Bir tekis, bir hil, o'ralgan		Etarli darajada emas	Notekis, plastinka shaklida	
donador	-		Juda tekis, sharsimon yoki cho'zinchoq		



3-Пасм. Чой импорти бо'йича ма'lumotnoma 2021 2022 yillar

2021-yil may avgust oylarida O'zbekiston so'nggi 3 oy davomida Xitoydan 6,7 ming tonna choy import qilgan. Bu haqda Davlat statistika qo'mitasi ma'lum qildi.

Qayd etilishicha, 2022 yilning yanvar-mart oylarida 18 ta xorijiy davlatdan qiymati 11 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan 8,2 ming tonna choy xarid qilingan.

Choy importi o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 1,5 ming tonnaga oshgan. 2022 yilning dastlabki uch oyida O'zbekiston choy mahsulotini eng ko'p import qilgan.

Choyning TIF TN BO'YICHA TASNIFLASH

Choy turlari va ishlov berish darajasiga ko'ra TIF TNning 09 - guruxida joylashgan. 0902 10 000 -- ko'k choy, 0902 40 000 -- qora choy: Shuningdek, choq qadoqlanishi va tarkibidagi ingredientlarga ko'ra TIF TNning 09 tovar pozitsiyasida - qadoqlanganda, bir martalik qadoqlashda (fermentli) ba --- boshqalar kabi tovar pozitsiyalarida joylashgan.

Choy turlarini 09 tovar guruhlari identifikatsiya qilish maqsadida, tasniflash me'zonlari ishlab chiqildi va bojxona amaliyotga joriy etildi.

Xulosa, Demak, biz tadqiqot ishimizda choy turlarini kimyoviy tarkibi o'rganildi va ularning TIF TN bo'yicha tasniflash me'zonlari ishlab chiqildi va bojxona amaliyotiga tavsiya etildi. O'rganilgan choy mahsulotlari tarkibida, B 2 vitaminlar meyor talablaridan kam ekanligi, bazi bir namuna tarkibida efir moylari miqdori meyardan ko'p, ya'ni 1,5 barobar ko'p ekanligi aniqlandi. SHuningdek fermentlar tarkibi meyoridan kamligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. QALAMPIR.UZ. Web-Site OAV sifatida 2022 yil 26 oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan 1089 raqam bilan ro'yxatga olingan. Tahririyat manzili: 100174, Toshkent shahri, Beruniy ko'chasi, 88-uy. Elektron manzil: info@qalampir.uz.
2. wallence.suen @wecistanche.com 0015292862950
3. Food security: National food market strategy Adilov T.T1, Israilova X.M2, Uzohkov I.E3, ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL Year : 2021, Volume : 11, Issue : 2 First page : (619) Last page : (626) Online ISSN : 2249-7137.
4. Karimkulov K.M., Xamroyev U.R. Voprosi optimizatsii xarakteristiki avtotransportnix sredstv po tovarnoy nomenklature vneshneekonomicheskoy deyatelnosti // Universum: texnicheskiye nauki: elektron. nauchn. jurn. – 2020. – № 6 (75) / [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/9564>.
5. Korf D.V. Pravovaya reglamentatsiya klassifikatsii tovarov: na primere tovarnoy nomenklaturi vneshneekonomicheskoy deyatelnosti YEAES // Publichno-pravoviye issledovaniY. – 2017. – № 1. – S. 32–45.
6. Natsionalnaya baza dannix po zakonodatelstvu Respubliki Uzbekistan / [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: www.lex.uz.

Sherali KARIMOV,
Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktoranti
E-mail: sheralikarimov700@gmail.com
Alisher XAITBAEV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori

O'zbekiston Milliy universiteti professori M.Mahkamov taqrizi asosida

LEPTINOTARSA DECEMLINAEATADAN OLINGAN XITOZANNI DEATSETLLANISH DARAJASINI ANIQLASH

Аннотация

Ushbu maqolada Leptinotarsa decemlineata dan ajratib olingan xitozan biopolimerining deatsetillanish darajasini patensiometrlik titrlash va element analiz usuli yordamida aniqlash to'g'risida fikr yuritilgan va olingan natijalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Xitozan, Leptinotarsa decemlineata, deatsetillanish darajasi, patensiometrlik titrlash, element analiz.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ УРОВНЯ ДЕАЦЕТИЛИРОВАНИЯ ХИТОЗАНА LEPTINOTARSA DECEMLINAEATA

Аннотация

В данной статье обсуждается определение степени деацетилирования биополимера хитозана, выделенного из *Leptinotarsa decemlineata* методом потенциометрического титрования и элементного анализа, и представлены полученные данные.

Ключевые слова: Хитозан, *Leptinotarsa decemlineata*, степень деацетилирования, потенциометрическое титрование, элементный анализ.

DETERMINATION OF THE LEVEL OF DEACETYLATION OF CHITOSAN FROM LEPTINOTARSA DECEMLINAEATA

Annotation

In this article, the determination of the degree of deacetylation of chitosan biopolymer isolated from *Leptinotarsa decemlineata* by potentiometric titration and elemental analysis method is discussed and the obtained feces are presented.

Key words: Chitosan, *Leptinotarsa decemlineata*, degree of deacetylation, potentiometric titration, elemental analysis.

Kirish. Xitin va xitozan moddalari ko'pchilik boshqa uglerod hamda azot elementlarini o'z ichiga olgan birikmalar singari, ushbu elementlarning tabiatdagi global sikllarida ishtirok etadi. Xitin tabiatda uchta asosiy manbaga ega bo'lib, bular: qisqichbaqasimonlar qobig'i, hasharotlar kutikulasi va mitselial zamburug'larning hujayra devori hisoblanadi. U, ko'pchilik hayvonlarning qurilish materiali bo'lib, asosan qo'llab-quvvatlovchi funksiyani bajaradi. Odatda boshqa moddalar bilan birgalikda uchraydi va tabiatda tarqalishi jixatidan biopolimerlar qatorida sellulozadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi[1].

Xitin manbaalari tabiatda juda ko'p va xilma-xil bo'lishiga qaramay eng asosiysi go'shti uchun ovlanadigan qisqichbaqasimonlar bo'lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib sanoat miqyosida xitin va xitozan ishlab chiqarish bilan ochiq dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqi oladigan davlatlar shug'ullanishi tabiiy xoldir.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, xitinning bizda mavjud bo'lgan eng asosiy manbaasi bo'lib hasharotlar hisoblanib, ularda prokutikulaning 25-60% biokimyoviy asosini xitin moddasi tashkil etadi[1].


Hasharotlardan Bargxo'r qo'ng'izlar (*Chrysomelidae*) oilasiga mansub Kolorado qo'ng'izi (*Leptinotarsa decemlineata*) asosan kartoshka barglari va poyasi bilan oziqlanadi. Tana qoplami va o'lchami nisbatan yirik (uzunligi 10 mm va kengligi taxminan 5 mm), yashovchanligi va reproduksiyasi yuqori[2].



1-rasm. *Leptinotarsa decemlineata*

Tadqiqotimiz davomida ushbu xom ashyodan xitozan moddasini klassik usuldan foydalanib ajratib oldik.

Xitozan chiziqli geteropolisaxarid bo'lib, asosan β -(1 \rightarrow 4)-glikozid bog'i bilan bog'langan 2-amino-2-deoksi- β -D-glyukopiranoza qoldiqlari birliklaridan tuzilgan. Bazi birliklar 2-asetamido-2-deoksi- β -D-glyukopiranoza qoldiqlaridan iborat[3;10].



2-rasm. Xitozan biopolimerining kimyoviy tuzilishi.

Amaliyotda xitozandan foydalanishda uning muhim parametrlaridan biri bo'lib deatsetillanish darajasi (DDA) hisoblanadi. DDA bir qator spektroskopik (IQ, UB, ^1H YaMR) va analitik (potensiometrik va konduktometrik titrlash, element analiz kabi) usullar yordamida aniqlanadi [4].

Keng tarqalgan va qulay usullardan biri bo'lib potensiometrik titrlash usuli hisoblanadi. Ushbu usulda neytrallash, cho'kma va kompleks hosil qilish, oksidlanish-qaytarilish va boshqa usullar yordamida ekvivalent nuqta aniqlanadi. Bunda xitozan suyultirilgan HCl eritmasida eritiladi va NaOH ning aniq konsentratsiyadagi eritmasi bilan titrlanadi. Jarayonda doimiy ravishda eritmaning muhiti o'zgarishi (pH) qayd etib boriladi. Sarflangan ishqorning hajmi va eritma pH qiymati asosida grafik tuziladi. Grafikda hosil bo'lgan egrilardan biri ortiqcha qo'shilgan HCl ni, yana biri esa xitozan melekulasidagi erkin aminoguruhlariga birikkan HCl ni neytrallanishidan hosil bo'ladi. Ayni ikki egri chiziq orasidagi farqdan foydalanib xitozandagi erkin aminoguruhlar miqdori aniqlanadi hamda deatsetillanish darajasi topiladi (1-formula) [5;6]:

$$DDA = \frac{m * 203}{G - 42 * m} 100$$

bu yerda, 42-xitin va xitozan elementar zvenosi molekulyar massalari orasidagi farq; G-eritilgan xitozan massasi (gr);

$$V = V_2 - V_1$$

$$m = V * T,$$

bu yerda, V-sarflangan NaOH eritmasining hajmi (ml); T-NaOH eritmasining titri (mol/ml)

$$T = \frac{A}{B}$$

Xitozanni deatsetillanish darajasini aniqlashda nisbatan tezkor bo'lgan element analiz usuli ham qo'llaniladi. Buning uchun ma'lum miqdordagi xitozan qizdiriladi hamda massaning o'zgarib borishi asosida undagi uglerod va azot miqdori topiladi. Topilgan miqdorlardan foydalanib deatsetillanish darajasini aniqlash uchun C/N nisbati olinadi. Ma'lumki xitozanda azotning miqdori 8,7% ni, xitinda esa 6,9% ni tashkil etadi. Element analiz usulida xitozanning deatsetillanish darajasini topishda quyidagi formuladan foydalaniladi (2-formula) [7;8;9]:

$$DD = \left(1 - \frac{C/N - 5,145}{6,816 - 5,145}\right) \times 100$$


bu yerda, 5,145 to'liq N-deatsetillangan xitozandagi ($\text{C}_6\text{H}_{11}\text{O}_4\text{N}$ takrorlanuvchi qism) C/N nisbati; 6,861 to'liq N-atsillangan xitindagi ($\text{C}_8\text{H}_{13}\text{O}_5\text{N}$ takrorlanuvchi qism) C/N nisbati.

Yuqoridagi usul biroq boshqa shaklda ham amalga oshirilishi mumkin. Unga ko'ra tekshirilayotgan xitozanning ma'lum miqdori $550-600^\circ\text{C}$ da yoqiladi va organik fraksiyadagi azotning foiz miqdori hisoblanadi. Deatsetillanish darajasini quyidagi formula bilan topiladi (3-formula) [7]:

$$DD(\%) = [(8,695 - N) / 1,799] \times 100$$


bu yerda, 8,695-to'liq deatsetillangan xitozandagi N foizi; 1,799-xitin va xitozandagi azotning foiz miqdorlari orasidagi farq; N (%) - organik fraksiyadan hisoblangan azot foizi.

Olingan natijalar va ularning taxlili. Dastlab, ma'lum miqdordagi xitozan xlorid kislotaning suyultirilgan eritmasida eritib olindi va ushbu eritma NaOH eritmasi bilan potensiometrik usul yordamida titrlandi.




3-rasm. Eritmalarni titrlash diagrammasi.

Quyida xitozanning potensiometrik titrlash egrilari keltirilgan:



4-rasm. HCl eritmasini NaOH eritmasi bilan titrlash egrisi.



5-rasm. Leptinotarsa decemlineata xitozanini NaOH eritmasi bilan titrlash egrisi.

Deatsetillanish darajasi deatsetillash vaqtiga bog'liq holda o'zgaradi. Jarayon vaqtining ortishi DDA ning ham ortishiga sabab bo'ladi. Aniqlangan va hisoblangan qiymatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Deatsetillanish darajasini deatsetillash vaqtiga bog'liqligi

1-Jadval

Eritilgan xitozan massasi (gr)	Sarflangan ishqor hajmi (ml)	Ishqorning titri (mol/ml)	Sarflangan ishqorning miqdori (mol)	Deatsetillash vaqti (soat)	Deatsetillanish darajasi (%)
0,2	28,93	0,0000311	0,000899	2	76,8
	31,06		0,000965	3	81,4
	34,51		0,001073	4	88,9
	34,62		0,001117	5	89,1

Tekshirilayotgan xitozan na'munasi element analiz qilinganda tarkibida 7,14% azot mavjudligi aniqlandi. Shunga asosan 2-formula yordamida uning deatsetillanish darajasi hisoblab chiqildi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan:

2-Jadval

Xitozan tarkibidagi uglerod, azot va vodorodning foiz miqdorlari

Na'muna	Deatsetillangan vaqti	C %	N %	H %	C/N	DDA (%)
Xitozan	5 soat	38,35%	7,14%	7,81%	5,37	86,3

2-jadvaldagi azotning foiz miqdoridan foydalanib xitozanning deatsetillanish darajasi 3-formula asosida hisoblanganda ham 86,3% ni tashkil etishini ko'rish mumkin.

Xulosa. *Leptinotarsa decemlineata* dan klassik usul yordamida ajratib olingan xitin moddasini yuqori konsentratsiyali ishqor eritmasi bilan deatsetillab olingan xitozanni DDA qiymatlari element analiz hamda patensimetrik titrlash usullaridan foydalanib topildi hamda ushbu qiymatlar o'zaro taqqoslandi. Deatsetillanish darajasining qiymati va deatsetillash vaqti orasidagi munosabat o'rganilganda ularni proporsional tarzda o'zgarib borishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. В.П.Варламов, А.В.Ильина, Б.Ц.Шагдарова, А.П.Луньков, И.С. Мысякина. Хитин/хитозан и его производные: фундаментальные и прикладные аспекты. Успехи биологической химии, т. 60, 2020, 317-368 с.
2. A.Xudoyqulov, N.Irgasheva, S.Ubaydullayev, A.Norqulov,. O'simliklarni zararli organizmlardan uyg'unlashgan himoyalash. O'quv qo'llanma. "Fan ziyosi" Toshkent-2021. 48-51b.
3. Каримов Ш.Х., Хабибуллаева Н.Ф., Хаитбаев А.Х. *Leptinotarsa decemlineata*(Say) tarkibidan xitozan ajratib olish. FarDU ilmiy xabarlar. 2021.6/5.C. 36-41 b.
4. K.D.I. Dimzon, T.P. Knepper. Degree of deacetylation of chitosan by infrared spectroscopy and partial least squares // International Journal of Biological Macromolecules. 2015. Volume 72, – pp. 939–945.
5. Y. Zhanga, X. Zhanga, R. Dinga, J. Zhanga & J. Liub. Determination of the degree of deacetylation of chitosan by potentiometric titration preceded by enzymatic pretreatment // Carbohydrate Polymers. 2011. Volume 83, – pp. 813–817.
6. N. Balbzs & P. Sipos. Limitations of pH-potentiometric titration for the determination of the degree of deacetylation of chitosan // Carbohydrate Research. 2007. Volume 342, – pp. 124–130.
7. Abdulkarim, M.T. Isa, S. Abdulsalam, A.J. Muhammad, A.O. Ameh. Extraction and characterisation of chitin and chitosan from mussel Shell // Civil and Environmental Research. 2013. Volume 3, Issue 2, – pp. 108–114.
8. M.R. Kasaai, J. Arul, G. Charlet. Intrinsic Viscosity–Molecular Weight Relationship for Chitosan // Journal of Polymer Science: Part B: Polymer Physics. 2000. Volume 38, – pp. 2591–2598.
9. Z.M. dos Santos, A.L.P.F. Caroni, M.R. Pereira, D.R. da Silva, J.L.C. Fonseca. Determination of deacetylation degree of chitosan: a comparison between conductometric titration and CHN elemental analysis // Carbohydrate Research. 2009. Volume 344, – pp. 2591–2595.
10. Sh.Karimov, A.Xaitbayev. Xitozan ajratib olish usullarini optimallashtirish. FarDU ilmiy xabarlar. 2022-yil 6-son. 472-475 b.



UDK:582.121.2

Shodibek KASIMOV,

Guliston davlat universiteti dotsenti,

E-mail: shukrona1141603@mail.ru

Alimjon MATCHANOV,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Bioorganik kimyo instituti tajriba-texnologik laboratoriya mudiri

JDPU kimyo fanlari doktori, M.Sultonov taqrizi asosida

SOME PHYSICAL AND CHEMICAL DIMENSIONS OF SUPRAMOLECULAR COMPLEXES OF GLYCYRRHIZIC ACID AND ITS SALTS WITH GALLIC ACID

Annotation

In this state, glycyrrhizic acid and its products are present in several different ratios of gallic acid, i.e. 1:2; 1:4; Information is provided on methods for obtaining new supramolecular compounds obtained in a molar ratio of 1:8, and some physicochemical properties of the resulting compounds. The results of the analysis of the chemical structure obtained by a new method of IR and UV spectroscopy are presented.

Key words: molar ratio, glycyrrhizic acid, gallic acid, spectrum, IR and UV spectroscopy, structure, physiologically active compounds.

НЕКОТОРЫЕ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ РАЗМЕРЫ СУПРАМОЛЕКУЛЯРНЫХ КОМПЛЕКСОВ ГЛИЦИРРИЗИНОВОЙ КИСЛОТЫ И ЕЕ СОЛЕЙ С ГАЛЛИРОВОЙ КИСЛОТОЙ

Аннотация

В данной статье глицирризиновая кислота и ее производные представлены в нескольких различных соотношениях галловой кислоты, т.е. 1:2; 1:4; Приведены сведения о методах получения новых супрамолекулярных соединений, полученных в мольном соотношении 1:8, и некоторых физико-химических свойствах полученных соединений. Представлены результаты анализа химической структуры полученных новых соединений методами ИК- и УФ-спектроскопии.

Ключевые слова: молярная соотношения, глицирризиновая кислота, галловая кислота, спектр, ИК- и УФ-спектроскопия, строение, физиологически активное соединения.

GLITSIRRIZIN KISLOTA VA UNING TUZLARINING GALL KISLOTASI BILAN SUPRAMOLEKULAR KOMPLEKSLARINING AYRIM FIZIK-KIMYOVIY KATTALIKLARI

Аннотация

Ushbu maqolada glitsirrizin kislotasi va uning hosilalari bilan gall kislotasining bir necha xil va'ni 1:2; 1:4; 1:8 molyar nisbatlarda olingan yangi supramolekulyar birikmalarini olish usullari va olingan birikmalarning ayrim fizik-kimyoviy xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar berildi. Olingan yangi birikmalarning kimyoviy tuzilishini IQ- va UB-spektroskopiya usullaridagi taxlil natijalari keltirildi.

Kalit so'zlar: molyar nisbatlar, glitsirrizin kislotasi, gall kislotasi, spektr, IQ- va UB-spektroskopiya, struktura, fiziologik faol birikma.

Kirish. Mamlakatimiz o'simlik dunyosiga boy bo'lib, ulardan ajratib olinadigan biologik faol va oshlovchi moddalar oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika va xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi. Shuni hisobga olganda, hozirda o'simlik moddalarining kimyoviy tarkib va xossalari tadqiq qilish hamda ularni modifikatsiyalashning amalga oshirilishiga qiziqish ortib bormoqda.

Mamlakatimizda A.A.Toychiev, D.N.Dalimov, A.A. Axunov, H.H.Qo'shiev, A.D.Matchanov, M.B.Gafurovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham ayrim qishloq xo'jaligi o'simliklarining o'sish va rivojlanishiga fiziologik faol moddalarning ta'siri tadqiq qilingan. Shunga ko'ra, tabiiy birikmalarni olish va ular asosida supramolekulyar komplekslarini olish, fizik-kimyoviy va o'simliklarning o'sishi hamda rivojlanishiga ta'sirini aniqlash bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ko'p xollarda modifikatsiyalangan tabiiy birikmalar o'zining ba'zi fizik va kimyoviy xossalari jixatidan tabiiy moddalardan ustunlik jixatlariga ega. Yuqorida ko'rsatilgan moddalar qatoriga glitsirrizin kislotasi va uning hosilalarini kiritish mumkin.

GK va ularning hosilalari asosida dori vositalari yaratilishida uning gel hosil qilish xususiyati asosiy omillardan biri bo'lib hizmat qiladi [1-2].

Shuni e'tiborga olgan holda ushbu tadqiqot ishida glitsirrizin kislotasi va uning monoalmashgan hosilalarining gall kislotaga ta'sirining kimyoviy mexanizmi va uning tuzilishini IQ- va UB- spektroskopik analiz usullarida tadqiq qilishni maqsad qildik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gall kislotasi tarkibi $C_6H_2(OH)_3COOH$ dan iborat bo'lgan polifenol birikmadir. Gall kislotasi monogidrat shaklida bo'lib, rangsiz kristall modda. Erish harorati 220-221°C. Eruvchanligi (g 100 ml erituvchida): suvda - 1,16 (25 °C), 33 (100°C); etanol-27,2 (25 °C); efir-2,5 (15 °C) [3]. Ishqoriy eritmada gall kislotasi kislorodni yutadi. Ohak suvi (kaltsiy gidroksid) va ammiak bilan gall kislotasi oq cho'kmalar hosil qiladi. Tanninlardan farqli o'laroq, gall kislotasi jelatinni cho'ktirmaydi. U qizdirilganda oltin va kumush tuzlarini qaytara oladi, shuningdek, kislotali kaliy permanganat

eritmasini beradi. Feling suyuqligi gall kislotasi bilan kamaymaydi. Gall kislotasi tabiatda eng ko'p uchraydigan organik kislotalardan biridir [3-4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishining maqsadi gall kislotasining tanlovchanlik xususiyatini oshirish va ularning suvda eruvchanlik muammolarini hal etish orqali farmakologik ta'sirini kengaytirish, zaharlilik darajasini kamaytirish maqsadida glitserizin kislotasi (GK) hosilalari bilan supramolekulyar birikmalarini olish va ularning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot avvalida glitserizin kislota (GK) va uning monoammoniyli tuz (GKMAT) bilan gall kislotasining 1:2, 1:4, 1:8 nisbatlardagi supromolekulyar birikmalari olindi. So'ngra ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganildi. Sintez qilingan birikmalar tuzilishi IQ- va UB- spektroskopiya usullarida tadqiq qilindi.


Tahlil va natijalar. GKMAT bilan gall kislotasining 1:2, 1:4, 1:8 nisbatlarda supromolekulyar birikmalarini olish uchun yangi sintez qilingan GK ning monoammoniyli tuzi, gall kislota, organik erituvchilardan; xloroform, benzol, atseton "k.t", etil spirti "t.", atsetonitril, dietilefir, sulfat kislotalardan foydalanildi.

Dastlabki va sintez qilingan moddalarning tuzilishi IQ spektrlari - Elmer System 2000 FT-IR (Yaponiya) spektrometrida, UB spektri -UB 1280 spektrometrlarida (Yaponiya) tadqiq qilindi.

Ma'lum miqdordagi GK ga aralashtirib turgan holda etil spirti muhitida tanlangan qulay sharoitlarda gall kislota ta'sir ettirildi. Reaksiya oxiriga etgach, reaktson aralashma filtrlab olinib, erituvchi rotorli bug'latgich yordamida vakuumda haydab olindi, suvli qismi liofil quritgichda quritildi. Olingan supromolekulyar kompleks suvda yaxshi eriydi, 183 °C da parchalanadi.

-Gall kislotasining GK (1:2) hamda GKMAT bilan 1:2, 1:4 va 1:8 nisbatlarda supromolekulyar komplekslari quyidagi umumiy 1-sxemaga asosan olindi.

1-sxema



Gall kislotasining GKMAT bilan 1:2, 1:4 va 1:8 nisbatlarda supromolekulyar komplekslari suv-spirt sistemasida olindi. Olingan komplekslarning fizik-kimyoviy kattaliklari hamda eruvchanligi aniqlandi. Hosil qilingan supramolekulyar komplekslar och sariq rangli kukun holdagi moddalar bo'lib, barcha komplekslar suvda va suv-organik erituvchilardan iborat sistemalarda yaxshi eriydi, toza organik erituvchilarda esa erimaydi. Sintez qilingan moddalarning ayrim fizik-kimyoviy xususiyatlari 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

GK gallat tuzi va GKMAT ning gall kislota supramolekulyar komplekslarining ba'zi fizik-kimyoviy tavsiflari


№	Sintez qilingan moddalar	Mol nisbatlar	T _{suyuq} , °S (par)	Unum %	Eruvchanlik
1	GK:GallK	1:2	183±3	98	Suv, suv-etanol, suv-atsetonitril
2	GKMAT :GallK	1:2	192°C ± 1	98	Suv, suv-etanol, suv-atsetonitril
3	GKMAT: GallK	1:4	194°C ± 1	97	Suv, suv-etanol, suv-atsetonitril
4	GKMAT: GallK	1:8	195°C ± 3	6	Suv, suv-etanol, suv-atsetonitril

GKMATning supramolekulyar komplekslari GK xosil qilgan komplekslarga nisbatan suvda eruvchanligi yuqori. Bundan tashqari GK va GKMATning bir xil modda bilan hosil qilgan komplekslarining biologik faolligi turlichadir.

Ma'lumki, IQ-spektroskopiya tekshirilayotgan modda tarkibidagi atom va molekularning tebranma harakati bilan bog'liq bo'lgan nazariyaning asosini tashkil etadi.

Bu usul yordamida alohida reagentlar va komplekslarning spektridagi yutilish chiziqlari orasidagi farqlar asosida yangi ta'sirlashuv hamda hosil bo'lgan yangi bog'lanishlar haqida xulosa chiqarish imkoni mavjudligini hisobga olib, tadqiqotlarimiz natijasida olingan yangi supramolekulyar komplekslarning tuzilishini tadqiq qilish uchun IQ –spektroskopiya usulidan foydalanildi.

Molekulardagi atomlar va atom guruhlariga xos bo'lgan tebranishlar shakli ayni chastotada tebranayotgan barcha atomlarning tebranish amplitudasiga va o'z navbatda, normal tebranish vaqtidagi kimyoviy bog' uzunligi va bog'lararo burchakning o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Agar molekula tebranishi natijasida atomlararo kimyoviy bog' (yoki bog'lar) qisqarsa yoki uzaysa molekulaning bunday xarakati shakli valent tebranish deb ataladi. Valent tebranishlar soni molekuladagi kimyoviy bog'lar soniga teng bo'ladi [5].



1-rasm. Gall kislota va GKMATning 2:1 nisbatidagi kompleksining IQ- spektri.

Alohida Gall kislotaning IQ- spektri va GKMATning Gall kislota bilan 1:2 nisbatidagi supramolekulyar kompleksining IQ- spektri taqqoslanganda taxlil natijalari ko'rsatishicha, supramolekulyar komplekslarning spektrlarida kompleks birikmalar tarkibidagi gidroksil (OH) guruhlarining valent tebranishlari 3228,84 sm⁻¹ sohada kuzatilgan bo'lsa, 8-oksixinolinda gidroksil

(OH) guruhlarining valent tebranishlar $3028,24 \text{ cm}^{-1}$ sohada namoyon bo'ladi. supramolekulyar kompleksdagi karboksil guruhi karbonilarning valent tebranishlari $1722,43\text{-}1656,85 \text{ (CO)} \text{ cm}^{-1}$ sohalarda kuzatilsa, GK tarkibidagi karboksil guruhlarining karbonillari valent tebranishlari $1725\text{-}1690 \text{ cm}^{-1}$ sohada kuzatiladi (1-rasm).

Kompleks molekulasidagi ($\text{CH}_2\text{-CH}_3$) guruhlariga tegishli $1591,17 \text{ cm}^{-1}$ tebranishlar, GK tarkibidagi $1454,33 \text{ cm}^{-1}$ ($\text{CH}_2\text{-CH}_3$) sohada kuzatiladi. Spektral sohalardagi yutilish chiziqlari orasidagi tegishli farqlar yangi ta'sirlashuv hamda hosil bo'lgan yangi bog'lanishlar haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Olingan yangi supramolekulyar komplekslarning UB-spektrlari va IQ-spektrlarining qiymatlari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval


Olingan moddalarning UB-spektr va IQ-spektrlari

№	Olingan moddalar	UB-spektr (50 % etanol, λ_{max} , nm) (lgε)	IQ-spektr (ν , cm^{-1})
1	GK: GallK	257(4,7)	3375(OH), 2920, 23-2858, 15(CH), 1714, 72(C=O), 1645, 28(C=O), 1595, 13(CH ₂ -CH ₃), 1556, 559(CH), 1504, 48-1454, 33(CH), 1386, 82(COO), 1307, 74-1261, 45(CH), 1211, 30(CH), 1165(C-O-C, C-OH), 1041, 56(C-O-C, C-OH), 981, 71(=CH)
2	GKMAT: GallK (1:4)	258(4,9) 222(4,3)	$\nu(\text{OH})=3319$, $\nu(\text{CH}, \text{CH}_2, \text{CH}_3)=2948$, $\nu(\text{C}=\text{O})=1716$, $\nu(\text{C}_{11}=\text{O}, \text{C}=\text{C})=1621$, $\nu(\text{COO}^-)=1595$, $\delta(\text{CH}_2, \text{CH}_3)=1452$, $\delta(\text{CH})=1347$, 1212, $\delta(\text{C}-\text{O}-\text{C}, \text{C}-\text{OH})=1173$, $\nu(\text{C}-\text{O}-\text{C})=1032$, $\delta(=\text{CH})=978$
3	GKMAT: GallK (1:8)	257(4,8)	$\nu(\text{OH})=3387$, $\nu(\text{CH}, \text{CH}_2, \text{CH}_3)=2942$, $\nu(\text{C}=\text{O})=1700$, $\nu(\text{C}_{11}=\text{O}, \text{C}=\text{C})=1645$, $\nu(\text{COO}^-)=1590$, $\delta(\text{CH}_2, \text{CH}_3)=1388$, $\delta(\text{CH})=1362$, 1213, $\delta(\text{C}-\text{O}-\text{C}, \text{C}-\text{OH})=1172$, $\nu(\text{C}-\text{O}-\text{C})=1031$, $\delta(=\text{CH})=980$

Adabiyotlarda qayd etilishicha, GK molekulasining "mehmon-mezbon" holidagi klatrat birikmalar hosil qilish xususiyati, uning tibbiyotda qo'llaniladigan bir qator dori vositalari bilan bir qator supramolekulyar komplekslarini olish va ularning molekulyar kapsullash samarasi hisobiga faolligini oshirish hamda davolash indeksini kengaytirish maqsadida qo'llanilgan [6-7].



Odatda supramolekulyar birikmalar hosil bo'lish jarayonida mezbom molekulada bir necha bog'lanish hosil qiluvchi faol markazlar mavjudligi va bu molekuladagi komplementarlik xususiyati mezbom molekulaning mehmonlarni aniq belgilangan tuzilma bo'yicha tanlab olish imkonini beradi. Bu esa mezbom va mehmon molekularning geometrik tuzilishi va'ni retseptor molekulasidagi bo'shliqning diametri substrat molekulasining radiusiga mos kelishi kerakligi bilan izohlanadi [8].

GKMATning Gall kislota bilan supramolekulyar komplekslari stexiometrik tarkibi Ostromo'slenskiy-Jobaning izomolyar tizim metodi bilan aniqlandi. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, komplekslarning tarkibiy qismlari 2:1 nisbatda hosil bo'ladi. Quyidagi grafikaviy egri chiziqda ko'rsatilganidek, komponentlarning nisbatiga ko'ra optik zichlikning o'zgarishidan kompleksning izomolyar tizimi ko'rsatkichi $\approx 2,0$ ga teng bo'lib, shunga asosan kompleksdagi komponentlar nisbati 2:1 nisbatda bo'lishi qayd qilindi (2-rasm).



2-rasm. $\lambda=212 \text{ nm}$ da ($S(\text{GallK})=10^{-4} \text{ M}$, $S(\text{GKMAT})=10^{-4} \text{ M}$, $\text{pH}=7,2$) komponentlar izomolyar tizimi nisbatiga ko'ra optik zichiligi (ΔA) ning o'zgarishi.

Supramolekulyar kompleks (I) tizimi egri chizig'iga ko'ra ko'rsatilganidek, 240 va 300 nm oralig'idagi nuqtalarda spektrlarning yutilishi kuzatiladi (3-rasm). Ma'lumki, spektrdagi izobestik nuqtalarning mavjudligi ma'lum oraliqda sistemadagi komponentlardan bitta tipga mansub kompleks shakllanganligini izohlaydi. Shunga ko'ra eritmada GKMAT va GallK komponentlari asosida GKMAT: GallK kompleksi aniqlandi:



3-rasm. Eritmalarning izomolyar seriyasida spektrlarning yutilish egri chizig'i ($S(\text{GallK})$ q 10^{-4} M , $S(\text{GKMAT})$ q 10^{-4} M , $\text{pH} 7,2$).

Tarkibi 2:1 nisbatda bo'lgan eritmada komplekslar nisbati bo'yicha K koeffitsienti hisoblanib, shu asosida kompleks hosil bo'lish jarayoni uchun Gibbs erkin energiyasi (ΔG) hisoblandi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib Gall kislotaning GKMAT bilan olingan supramolekulyar komplekslari stabilizatsiyasida GKMAT molekulasidagi karbonil guruhi kislorodi va Gall kislotaning molekulasidagi gidroksil guruhi hamda o'zida umulashmagan juft elektronlarni saqlagan azot atomi molekulararo dipol-dipol o'zaro ta'sir va vodorod bog'larini ishtirok qilishi aniqlandi.

Kompleks birikmalar vodorod bilan bog'lanadigan qo'shimcha umulashmagan juft elektronlar yordamida elektromanfiyligi yuqori bo'lgan atom saqlagan ta'sirlashayotgan molekular orasida ikki juft atomlarning o'zini-o'zi yig'ishi jarayoni supramolekulyar birikmaning hosil bo'lishi asosida yuzaga kelishi imkonini beradi.

GKMATning Gall kislota bilan 1:2, 1:4, 1:8 nisbatlardagi supromolekulyar komplekslari va GK ning gallat tuzini olish metodikasi ishlab chiqildi, ularning fizik kimyoviy xossalari o'rganilib, tuzilishi IQ- va UB- spektroskopiya usulida tadqiq qilindi.

ADABIYOTLAR

1. Г.А.Толстиков, Л.А. Балтина, Э.Э Шульц, А.Г Покровский// Глицирризиновая кислота. 1997.Т 23. № 9 С.691-709.
2. Г.А.Толстиков, Л.А.Балтина, В.П.Гранкина и др. Солодка биоразнообразии, химия, применение в медицине. Новосибирск. "ГЕО". 2007. 312 с.
3. Гауптман З., Грефе Ю., Ремане Х. Органическая химия. – Москва:"Химия", 1979. – 531-536 с.
4. Y. Absalan, E. A. Fortalnova, N. N. Lobanov, E. V. Dobrokhotova, O. V. Kovalchukova, J. Organometal. Chem., 2018, P.859, 80.
5. Крылов А.С., Втюрин А.Н., Герасимов Ю.В. Обработка данных инфракрасной Фурье-спектроскопии, Методич. пособие, №832 Ф., Красноярск, Институт физики СО РАН, 2005, 48 с.
6. Юлдашев Х.А., Абдушукурова С.Э., Выпова Н.Л., Гафуров М.Б. Противовоспалительная активность супрамолекулярных комплексов некоторых производных глицирризиновой кислоты с ацетилсалициловой кислотой // Академик С.Ю. Юнусов хотирасига бағишланган ёш олимлар илмий анжумани ЎМКИ: Тез. тўп. 18-19 март 2004. – Тошкент, 2004. - Б 65.
7. Далимов Д.Н., Мухамедиев М.Г., Хамидова Г.Р., Гафуров М.Б., Абдуллаев Н.Дж., Левкович М.Г., Юлдашев Х.А., Матчанов А.Д.. Физико-химические свойства водных растворов клатратов моноаммониевой соли глицирризиновой кислоты с бензойной и салициловой кислотами. Полимерлар фанининг хозирги замон муаммолари.-Тошкент.- 2011-Б.164-165.
8. Дж. В. Стил, Дж.Л. Этвуд Супрамолекулярная химия. – Москва: ИКЦ "Академкнига", 2007. - Т №1. - 480 с.



UDK:661.183.123.2

Azizbek KO'CHAROV,

Kichik ilmiy xodim, O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti

E-mail: azizbek.kucharov94@mail.ru

Farxod YUSUPOV,

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti professori, texnika fanlar doktori

Dilfuza NURIDDINOVA,

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti erkin tadqiqotchisi

Ra'no TOSHBOBOEVA,

Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti o'qituvchisi

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti doktoranti S. Q.Yusupov taqrizi asosida

RESULTS OF SCIENTIFIC RESEARCH OF ADSORPTION KINETICS AND ADSORPTION ISOTHERMS IN THE PRODUCED IONITE

Annotation

In this research work, first of all, brief information about adsorption isotherms in distilled water is given. Data on the results of correlation coefficients of Langmuir and Freundlich adsorption isotherms for Ca^{2+} and Mg^{2+} ions are presented. The effect of temperature change on the course of the modification reaction with sulfuric acid was also studied in the research work, and information was given on the rate of adsorption of Ca^{2+} and Mg^{2+} ions in pure water and how long it takes for the adsorption processes to reach equilibrium.

Key words: Water hardness, sulfonation, PVC, cation, adsorbent, technical water, metal ions, polymer substances.

РЕЗУЛЬТАТЫ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ КИНЕТИКИ И ИЗОТЕРМ АДСОРБЦИИ В ПОЛУЧЕННОМ ИОНИТЕ

Аннотация

В данной исследовательской работе, прежде всего, даются краткие сведения об изотермах адсорбции в дистиллированной воде. Представлены данные по результатам определения коэффициентов корреляции изотерм адсорбции Ленгмюра и Фрейндлиха для ионов Ca^{2+} и Mg^{2+} . В исследовательской работе также было изучено влияние изменения температуры на ход реакции модификации серной кислотой и даны сведения о скорости адсорбции ионов Ca^{2+} и Mg^{2+} в чистой воде и о времени, в течение которого протекают процессы адсорбции. достичь равновесия.

Ключевые слова: Жесткость воды, сульфокатирование, ПВХ, катион, адсорбент, техническая вода, ионы металлов, полимерные вещества.

ISHLAB CHIQLILGAN IONITDAGI ADSORBSIYA KINETIKASI VA ADSORBSION IZOTERMALARNING ILMIY TADQIQI NATIJALARI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ishida birinchi navbatda distirlangan suvdagi adsorbsion izotermalar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Ca^{2+} va Mg^{2+} ionlari uchun Lengmuir va Freyndlix adsorbsion izotermalarning korrelyatsiya koeffitsientlari natijalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot ishida haroratning o'zgarishi sulfat kislotasi bilan modifikatsiya reaksiyasining borishiga ta'siri ham o'rganilib, Ca^{2+} va Mg^{2+} ionlarining toza suvda adsorbsiya tezligi juda yuqori va adsorbsiya jarayonlari qancha vaqtdan keyin muvozanatga kelishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Suvning qattiqligi, sulfokationit, PVX, kationit, adsorbent, texnik suv, metal ionlari, polimer moddalar.

Kirish. Suvdan oqilona foydalanish atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Suvga bo'lgan talabning tez o'sib borishi va suvning cheklanganligi shuningdek, suvni tozalash jarayonlari narxining oshishi suvni tozalash uchun yangi texnologiyalarni yaratish zaruratiga olib keladi. Sanoat oqava suvlarini tarkibidagi Mg va Ca ionlari suvning umumiy qattiqligini ko'rsatuvchi faktorlardan bo'lib, uning qayta ishlatish imkoniyatlarini belgilaydi. Shu sababli sanoat oqava suvlarini umumiy qattiqligini tushirish uchun maxalliy xomashyolar asosida kationitlar sintez qilish dolzarb muammo hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda stiroil va divinilbenzol, polivinilxlorid, fenolformaldegid kabi polimer yoki sopolimerlarning sulfolanigan birikmalari keng tarqaldi va qo'llanilmoqda. Kislotasi yoki asoslik darajasi bilan bir biridan farq qiladigan juda ko'plab ionitlar ma'lum. Sulfat kislotasi, oleum va xlorosulfokislotasi sulfolanigan hosil qilgani uchun bunday jarayonlarda qo'llanila olmaydi. Boshqa tomondan sulfat angidridning dioksan [1], trioksan [2] yoki 3-dixloridietiloksid bilan aralashmasi sulfo kationitlarni hosil qilmaydi va suvda eruvchan birikmalar hosil qiladi [3]. Bu sulfolanish xona haroratida yoki undan pastroq haroratda kompleksni polistiroil bilan aralashtirish orqali amalga oshiriladi, sulfolanigan polimer eritmadan ajralib qoladi [4].

Sulfolanish darajasini o'zgartirib 70 % dan to'g'ri nazariy hisoblangan unumgacha har bir benzol halqasiga bittadan sulfoguruh biriktirilgan sulfokislotasi olindi. Past sulfolanish darajasida (10-20 %) suvda eruvchan birikmalar hosil bo'lishi va eritmadagi suvni bug'latib yuborgandan keyin ushbu birikmalardan suvda erimaydigan plyonkalar hosil bo'lishi alohida qiziqish uyg'otadi [5]. Izog'ovakli makroto'rtli stiroil polimerining sulfolanishi nisbatan oson kechadi. Sulfat kislotasi bilan sulfolanishda 80 °C

haroratdoyoq aromatik halqalarning almashinishiga olib keladi. 100 °C da hatto o'zaro bog'lanish darajasi 40-100 % bo'lgan polimerlar ham almashinish sig'imi 4,5-4,7 mg-ekv/g bo'lgan sulfokationitlarga aylanadi [6]. Sulfolanishning oson borishi barcha aromatik halqalarning izog'ovakli makroto'rli polistirolda joylashganligidan dalolat beradi. Polimerga kiritilgan barcha sulfoguruhlar o'z protonini tetrabutilammoniy ioni kabi katta hajmli guruhga almashtirishga qodir ekanligi ham xuddi shunday dalolat beradi. Taqqoslash uchun shuni ta'kidlash kerakki, odatiy kationitlar 10 % DVB saqlaganda sulfoguruhlarining yarimi o'z protonini tetrabutilammoniyga almashtira olmaydi. Ushbu reaksiyalarni amalga oshirish uchun PVX kukuni yoki PVX ning dixloroetandagi eritmasi ishlatiladi [7].

Sanoatning turli sohalarida qo'llanuvchi sorbentlar qator talablarga javob berishi kerak, xususan turli metallarga nisbatan yuqori sorbsion sig'imiga ega bo'lishi, suvda erimasligi, kimyoviy barqaror bo'lishi, haroratning o'zgarishiga barqaror bo'lishi va arzon bo'lishi bilan birgalikda ko'p marta qayta ishlatish xususiyatiga, suvni tozalash jarayonida texnologik, ekologik va iqtisodiy talablarga mos kelishi kerak. Shuning uchun agressiv fizik-kimyoviy ta'sirlarga barqaror bo'lgan, yangi ion almashinuvchi ionitlar sintez qilish dolzarb masalalaridan biridir [8]. Shuning uchun olingan ionitning tarkibi va tuzilishi zamonaviy usullar yordamida o'rganildi. Sanoatda qo'llanuvchi ionitlarga turli xil talablar qo'yiladi shu talablardan eng asosiylaridan biri bu termik va kimyoviy barqarorlik hisoblanadi [9].

Material va metodlar. Olingan KP-1 sulfokationitining sorbsion xossalari aniqlash uchun CaCl_2 va MgCl_2 eritmalaridan metall ionlarining sorbsiyasi statik usulda o'rganildi. Ushbu tajribalar 0,025 dan 0,1 mol/l gacha bo'lgan konsentratsiyali kalsiy va magniy xloridning sun'iy eritmalarida 24 soat davomida o'tkazildi. 250 ml konussimon kolbaga 0,3 g quruq sorbent solindi va 100 ml turli konsentratsiyadagi CaCl_2 yoki MgCl_2 eritmasidan qo'shildi [10].


Amaldagi standart un namligining past darajasini tartibga solmaydi, ammo amaliy ishlar natijasida un namligining past ko'rsatkichlari (12% dan past) istalmaganligi aniqlandi [6].

O'rganilayotgan un namunalarining namligini o'rganish natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Undagi namlikning massa ulushi

Tajriba uchun namuna	W, %
"Yaksart" butun don, (Qashqadaryo donmahsulotlari AJ)	10,43±0,15
"G'ozg'on" 300 g, Koson don MChJ	7,38±0,03
"Amarant uni 1-nav" 1 kg, "Koson don" MChJ	10,02±0,17
"Yuqori proteinli amarant uni" 1 kg, ishlab chiqaruvchi: "Dunyo-M" AJ	6,80±0,25
Proteinli amarant uni (Dunyo-M AJ tomonidan ishlab chiqarilgan)	9,40±0,22

Yuqori proteinli (Dunyo-M tomonidan ishlab chiqarilgan) 5,80±0,20 Proteinli amarant uni (Qashqadaryo donmahsulotlari AJ tomonidan ishlab chiqarilgan) 8,60±0,20

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, barcha un namunalari ruxsat etilgan qiymatdan 15% dan oshmaydigan namlikka ega.

Amarant unining barcha turlarining yuqori namlikni ushlab turish qobiliyati undagi 3,9 dan 16,5% gacha bo'lgan xun tolasining yuqori miqdori tufayli erishiladi.

Taqqoslash uchun: bug'doy unida, naviga qarab, xun tolasini ulushi 3,5 dan 11,3% gacha, amarant urug'larida bu ko'rsatkich 25 dan 60% gacha [7].

Ikkinchi muhim ko'rsatkich - bu kislotalik ikki yo'l bilan aniqlanadi: suv-un aralashmasi va unning suvli ekstrakti (suvli ekstrakti) [8,9].

Adabiyot ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, amarant donalarida oqsillar ulushi kamida 16% ni tashkil qiladi [10].

Amarant unining o'rganilgan namunalarida oqsil miqdori 9,5 dan 30 g /100 g mahsulotgacha o'zgaradi. Amarant donining lipid komponentining asosi ko'p to'yinmagan yog'li kislotalardir. Uning kislotaliligi yog' kislotalari - un yog'ining gidrolitik parchalanish mahsulotlari, kislotasi fosfatlari va juda oz miqdorda - kislotali tabiatga ega bo'lgan oqsillarni gidrolizlash mahsulotlari va organik kislotalarning mavjudligi bilan belgilanadi. (sut, sirka, oksalat va boshqalar).

Kislotalikni baholash natijalari 3-jadvalda keltirilgan. Amarant unida ma'lum miqdorda natriy gidroksidni bog'laydigan oqsillarning ko'payishi, shuningdek, kraxmalning adsorbsion qobiliyati tufayli natijalar biroz yuqori baholanishi mumkin.

Unning kislotalilik ko'rsatkichlari

Suv- un aralashmasi asosida tekshirilgan un	Xavg, deg. suvli ekstrakt	X bo'yicha, deg.
"Yaksart" butun don, (Qashqadaryo donmahsulotlari AJ)	7,1±0,1	3,2
"G'ozg'on" 300 g, Koson don MChJ	6,8±0,2	2,0
"Amaranth uni 1-nav" 1 kg, "Koson don" MChJ	6,8±0,1	1,2
Proteinli amaranth uni (Dunyo-M AJ tomonidan ishlab chiqarilgan)	7,1±0,1	1,2
Proteinli amaranth uni	7,2±0,1	1,4

Suvli ekstraktidan kislotalilikni aniqlash kam baholangan natijalar beradi, chunki yog' kislotalari suvda erimaydi, filtrda qoladi. va neytrallanish reaksiyasida qatnashmang. Bug'doy va javdar uni bilan solishtirganda, amaranth uni kislotali hisoblanadi.

Unning kislotaliligi oshishi xamirning yuqori boshlang'ich kislotaliligiga va fermentatsiya jarayonida kislotalarning tez to'planishiga olib keladi. Yuqori kislotalilik tufayli amaranth unini suyuq xamirga qo'shish tavsiya etiladi. Amaranth unini tashkil etuvchi moddalar ta'sirida unning shakar hosil qilish va gaz hosil qilish qobiliyati ortadi.

Xamirturushning fermentatsiya faolligi sezilarli darajada oshadi va shu bilan atigi 70-75 daqiqada kerakli kislotalik darajasiga erishiladi. Kislotaligi yuqori bo'lgan un mahsulotlari ko'proq kislotali bo'lib, kam rivojlangan g'ovaklikka va kamroq o'ziga xos hajmga ega, albatta, non mahsulotlari retsepti va texnologiyasini ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak. Gazni ushlab turish qobiliyati unning kuchi bilan belgilanadi va shuning uchun gaz hosil qilish qobiliyati bilan bir qatorda non mahsulotlarining maydalangan hajmini, hajmini va g'ovaklik tuzilishini aniqlaydi.

Gaz hosil qilish qobiliyatini baholash, shuningdek, xamirga shakar qo'shilishi bo'lmagan non mahsulotlari retseptini ishlab chiqish nuqtai nazaridan ham zarur. Gaz hosil qilish qobiliyati past bo'lgan xamirga shakar fermentatsiyasining birinchi soatlarida fermentlanadi va fermentatsiya oxirida xamirga ularning yo'qligi sinov paytida va xamir bo'lari pechda bo'lgan birinchi davrda normal fermentatsiyani ta'minlamaydi. [7].

Unning gaz hosil qiluvchi va gazni ushlab turish qobiliyatini aniqlash uchun avval olingan natijalar bo'yicha 3 ta namuna tanlab olindi:

1. Amaranth unining 1-navli ("Koson don" MChJ) eng yuqori namligi $9,82 \pm 0,18\%$, kislotaliligi eng past. $6,8 \pm 0,1$ daraja;
2. Yuqori proteinli amaranth uni (Qashqadaryo viloyatining "Qashqadaryo donmahsulotlari" OAJ tomonidan ishlab chiqarilgan) namlik $5,80 \pm 0,20\%$ va o'rtacha kislotalilik $7,1 \pm 0,1$ daraja;
3. Proteinli amaranth uni (Dunyo-M AJ tomonidan ishlab chiqarilgan) namlikning massa ulushining o'rtacha qiymati $8,60 \pm 0,20\%$ va eng yuqori titrlanadigan kislotalilik qiymati $7,2 \pm 0,1$ daraja.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha, amaranth uni kimyoviy tarkibi va biologik qiymati bo'yicha istiqbolli mahsulot hisoblanadi.

2. Amaranth uni non mahsulotlari ishlab chiqarishda mustaqil xom ashyo sifatida foydalanish uchun barcha kerakli xususiyatlarga ega emas. Kam namlik tufayli amaranth unini qo'shimcha sifatida ishlatish mantiqan. 2016. Jildi 19, № 22 153 ki bug'doy uniga, namligi qoidalarda ruxsat etilgan qiymatlardan oshadi.

3. Amaranth unining yuqori kislotaliligi tufayli ferment preparatlarini ishlatmasdan fermentatsiya jarayonining davomiyligini qisqartirish mumkin.

4. Gaz hosil qilish qobiliyatiga ko'ra, amaranth uni yarim tayyor va tayyor mahsulotlar sifatini yaxshilash uchun kuchli kleykovina bilan bug'doy uniga yaxshi qo'shimcha sifatida xizmat qilishi mumkin.

5. Amaranth uni [14] tarkibida oqsil fraksiyasi - kleykovina yo'qligi sababli, uni kleykovinasiz mahsulotlar yaratish uchun ishlatish, shuningdek, pechene ishlab chiqarish uchun ajoyib qo'shimcha sifatida foydalanish mantiqiy.

ADABIYOTLAR

1. Камышева И.М. Разработка технологий комплексной переработки семян амаранта на пищевые цели // автореферат диссертации канд. тех. наук. СПб., 2000. 39 с.
2. Бадрутдинова М.В., Борисова С.В., Мингалеева З.Ш., Решетник О.А. Изучение возможности замены сахаропеска на высокотехнологичный подсластитель в производстве сдобных булочных изделий // Вестник КГТУ, 2013, Т. 16, N 3 - С. 179-182;
3. Гарипова А.Ф., Леонтьева М.А., Насрутдинова Р.А., Ямашев Т.А., Решетник О.А. Применение пряности *Nigella sativa* в технологии хлебобулочных изделий из пшеничной муки // Вестник КГТУ, 2014, Т. 17, N 22. - С. 241-243.
4. Смирнов С.О. Разработка технологии разделения зерна амаранта на анатомические части и получения из них нативных продуктов: Дис. канд. техн. наук: Москва, 2006 - 215 с.
5. ГОСТ 9404-88. Мука и отруби. Метод определения влажности. 6. Эл.ресурс: [http://hlebinfo.ru/tema-5-vlazhnostmuki.html]
6. Ауэрман Л.Я. Технология хлебопекарного производства. 9-е изд., перераб. и доп./ Под общ. ред. Л.И. Пучковой. – СПб.: Профессия, 2009. – 416 с.
7. ГОСТ 27493-87. Мука и отруби. Метод определения кислотности по болтушке.
8. Л.П. Ковальская, Г.М. Мелькина, Н.Н. Шебершнева Общая технология пищевых производств: под ред. Л.П. Ковальской.- М.:Колос, 2003.-383с.
9. Шмалько Н.А., Чалова И.А., Моисеенко Н.А., Ромашко Н.Л. Особенности микроструктуры и химического состава продуктов переработки зерна амаранта // Техника и технология пищевых производств – 2011.-№ 1 (20). [эл.ресурс: http://fpt-journal.ru/stories/archive/20/11.pdf]
10. Борисова С.В., Богова М.М., Решетник О.А., Махмутова Е.А., Аюпова А.Н. Влияние экстракта стевии на подъемную силу хлебопекарных дрожжей // Вестник КГТУ, 2015, Т. 18, N 18.- С. 270-271.
11. Халиуллина Г.А., Самигуллина А.Ф., Богова М.М., Борисова С.В., Решетник О.А. Влияние природного углеводного сырья на подъемную силу хлебопекарных прессованных дрожжей // Вестник КГТУ, 2015, Т. 18, N 18. - С. 272-273.
12. Пашенко Л.П. Кульнева Н.Г., Демченко В.И. Новые дополнительные ингредиенты в технологии хлеба, кондитерских и макаронных изделий/ ВГТА. – Воронеж, 1999. – 87 с.
13. Жаркова И.М., Мирошниченко Л.А., Звягин А.А., Бавыкина И.А. Амарантовая мука: характеристика, сравнительный анализ, возможности применения // Вопр. питания. - 2014. - № 1. - С. 67-73



Erkabay ESHCHANOV,
Urganch davlat universiteti dotsenti
E-mail: eshchanov.1966@mail.ru
Shodlik HASANOV,
Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy ishlar bo'yicha rais o'rinbosari
Oybek XUDOYBERGANOV,
Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi
Zubayda ABDULLAYEVA,
Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi
Shohida XO'SINOVA
Urganch davlat universiteti magistranti
Sanobar KALANDAROVA
Urganch davlat universiteti magistranti

Urganch davlat universiteti dotsenti, k.f.n X.Azizjanov taqrizi asosida

SYNTHESIS AND STRUCTURE OF THE COMPLEX OF COBALT(II) ACETATE AND SUCCINIC ACID WITH THE SODIUM SALT

Annotation

This article highlights the research results on the synthesis of a new heterometallic complex compound of cobalt(II) acetate and succinic acid with the sodium salt and the determination of their composition, structure and properties by physico-chemical methods: scanning electron microscope-energy dispersive analysis (SEM-EDX), X-ray phase analysis, thermal analysis and X-ray structural analysis. The central atom of the complex compound is cobalt, the oxygen atom of the carboxyl group of the acetate residue and the sodium salt of succinic acid are interconnected through the oxygen atom of the carboxyl group, forming a complex compound with a coordination number of 6.

Key words: Cobalt(II) acetate, succinic acid with the sodium salt, ligand, thermal analysis, SEM-EDX, X-ray phase and X-ray structural analysis, complex compound, coordination number, Mercury program, coordination capacity, complex compound stability.

СИНТЕЗ И СТРУКТУРА КОМПЛЕКСА АЦЕТАТА КОБАЛЬТА(II) И ЯНТАРНОЙ КИСЛОТЫ С НАТРИЕВОЙ СОЛЬЮ

Аннотация

В статье освещены результаты исследований по синтезу нового гетерометаллического комплексного соединения ацетата кобальта(II) и янтарной кислоты с натриевой солью и определению их состава, строения и свойств физико-химическими методами: растровым электронным микроскопом-энергодисперсионным анализ (SEM-EDX), рентгенофазовый анализ, термический анализ и рентгеноструктурный анализ. Центральным атомом комплексного соединения является кобальт, атом кислорода карбоксильной группы ацетатного остатка и натриевая соль янтарной кислоты соединены между собой через атом кислорода карбоксильной группы, образуя комплексное соединение с координационным числом 6.

Ключевые слова: ацетат кобальта(II), янтарная кислота с натриевой солью, лиганд, термический анализ, SEM-EDX, рентгенофазовый и рентгеноструктурный анализ, комплексное соединение, координационное число, программа «Mercury», координационная способность, комплексное соединение. стабильность.

КОБАЛТ(II) ATSETATI HAMDA QAHRABO KISLOTASINING NATRIYLI TUZI BILAN KOMPLEKSI SINTEZI VA STRUKTURASI

Annotatsiya

Maqolada kobalt(II) atsetatining qahrabo kislotasi natriyli tuzi bilan yangi geterometall kompleks birikmasi sintez qilgan va ularning tarkibi, tuzilishi va xossalari fizik-kimyoviy metodlar: skanerlovchi elektron mikroskop-energiya dispersion tahlil (SEM-EDT), rentgenfazaviy tahlil, termik analiz va rentgen strukturaviy tahlil yordamida o'rganilgan. Kompleks birikma tarkibidagi markaziy atom kobalt, atsetat qoldig'i tarkibidagi karboksil guruhining kislorod atomi va qahrabo kislotasining natriy tuzi bilan ham karboksil guruhidagi kislorod atomi orqali o'zaro bog'lanib, koordinatsion soni 6 ga teng bo'lgan kompleks birikmani hosil qilgan.

Kalit so'zlari: Kobalt(II)atsetati, qahrabo kislotasining natriyli tuzi, ligand, termik analiz, SEM-EDX, rentgenfazaviy va rentgen strukturaviy tahlil, kompleks birikma, koordinatsion son, Mercuriy dasturi, koordinatsion sig'im, kompleks birikma barqarorligi.


Kirish. Ushbu maqolada kompleks birikmalar kimyosining yangi yo'nalishlaridan bo'lgan geterometall koordinatsion birikmalar sintezi va ularning fizik-kimyoviy metodlar bilan tahlili haqida ma'lumotlar berilgan. Hozirgi davrda kompleks birikmalar kimyosi bilan shug'ullanuvchi olimlar tomonidan tarkibida ikki xil metall atomi tutgan koordinatsion birikmalarni sintez qilish va ularning tahlilini amalga oshirish bo'yicha ishlar keng ko'lamda amalga oshirilyapti. Ushbu sintezlangan koordinatsion birikma tarkibida ikki xil metall atomi va turli xil kislotaga qoldig'i tutganligi, shu jumladan, ular tarkibida juft elektroniga ega geteroatomlarning mavjudligi, ularning 3d-metallari bilan kompleks birikmalar hosil qilish imkoniyatini yanada

kengaytiradi. Shuningdek, Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida" [1] iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zgartirish masalalari alohida belgilab qo'yilgan [1]. Ushbu yo'nalishda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan, kimyo sanoatini rivojlantirishda, yangi kompleks birikmalarni sintez qilish, ularning biologik faolliklarini tadqiq etishga keng e'tibor qaratilmoqda. Ushbu masalalardan kelib chiqqan holda laboratoriya sharoitida o'simliklarning qurg'oqchilik va turli zararli hasharotlarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiruvchi qo'shimcha biologik faol ozuqa modda sifatida ishlatiluvchi biostimulyator sintezini amalga oshirdik. Sintezlangan bu biostimulyator Xorazm vohasida o'suvchi kartoshka, pomidor, qovun, tarvuz, qand lavlagi kabi o'simliklarda sinab ko'rildi.

Tadqiqotning maqsadi kobalt(II) atsetati hamda qahrabo kislotasi natriyli tuzi bilan kompleksining sintezi, tarkibi, tuzilishi va xossalari aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kobalt(II) atsetatining, qahrabo kislotasi natriyli tuzi bilan kompleks birikmasining sintez qilish usullari ishlab chiqilgan va sintezi amalga oshirilgan. Sintez qilingan birikmlarning tarkibi va tuzilishi SEM-EDX, rentgenfazaviy tahlil, termik analiz va rentgen strukturaviy tahlil metodlari yordamida o'rganilgan.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlarda kobalt(II)atsetatining va qahrabo kislotasining kompleks birikmalari sintezi, tuzilishini o'rganish va amaliy qo'llanilishi bo'yicha ishlarning natijalarini umumlashtirgan ko'plab sharxlar, maqolalar mavjud. Shuningdek, adabiyot manbalari tahlilining ko'rsatishicha, kobalt(II) atsetati va qahrabo kislotasining kompleks birikmalarini tahlil qilish bo'yicha keng miqyosda tajriba natijalari bo'lishiga qaramasdan, bu ligandlar asosida olingan geterometall kompleks birikmalar sintezi va tuzilishi yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli, kobalt(II) atsetati hamda qahrabo kislotasi natriyli tuzi bilan geteroyadroli kompleks birikmasini sintez qilish, fizik-kimyoviy va biologik faolligini aniqlash alohida ilmiy qiziqish tug'diradi. Hao Y.M., Irene Braunlich., Walter Caseri., B.Dede., Dawe L.N., Matthias Bauer., Swiegers G.F kabi olimlar tomonidan geterometall poliyadroli kompleks birikmalarining tuzilishi, tarkibi, xossasi va biologik faolligini o'rganish bo'yicha bir qancha ishlar tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotlar natijasida gomo- va geterometall koordinatsion birikmalar sintezi amalga oshirilgan, ularning tuzilishi, kimyoviy va ayrim fizik xossalari tahlil qilingan [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ishda zamonaviy fizik-kimyoviy metodlar: skanerlovchi elektron mikroskop-energiya dispersion tahlil (SEM-EDT), rentgenfazaviy tahlil, termik analiz va rentgen strukturaviy analiz usullaridan foydalanilgan[3]. [(SucNa₂)₂Co(CH₃COO)₂] tarkibli kompleks birikma sintezi quyidagi metodika bo'yicha amalga oshirildi. Qaytarma sovutgich bilan jihozlangan ikki og'izli kolbaga, 0,001 mol Co(CH₃COO)₂ tuzining suvdagi 10ml eritmasi quyildi. Eritma ustiga ikkinchi eritma 0,002 mol qahrabo kislotasi natriyli tuzining etanoldagi 20ml eritmasi, xar 10 minut davomida 5ml dan qo'shiladi. Aralashma 50 minut davomida aralastirib turgan holda, qaynatildi [4]. Erituvchisi xona haroratida bug'latildi. Olingan mahsulot dietil efirda yuvildi. Olingan och-pushti rangli modda uch kun davomida ochiq havoda, so'ngra quritish shkafida 5 kun davomida quritildi va kompleks birikmaning monokristali o'stirildi. Unum 72 %. Tsuyuq =184 °C.




1-rasm. Sintezlangan [(SucNa₂)₂Co(CH₃COO)₂] tarkibli kompleks birikma strukturasi

Sintez qilingan kompleks birikmadagi elementlarning miqdorlari (uglerod, kislorod va metall atomlari) SEM-EDT metodi yordamida analiz qilindi [5]. Komplekslarning mikrostrukturallari va EDT diagrammalari 2-rasmda keltirildi.




2-rasm. [(SucNa₂)₂Co(CH₃COO)₂] kompleks birikmasining mikrostrukturasi va EDT diagrammasi

Tahlil va natijalar. [(SucNa₂)₂Co(CH₃COO)₂] tarkibli kompleks birikmaning rentgenfazaviy tahlili amalga oshirildi [6]. [(SucNa₂)₂Co(CH₃COO)₂] kompleksining termik barqarorligi va tarkibida suv molekullari bor yoki yo'qligini



3-rasm. a-Co(CH₃COO)₂, б-SucNa, c-[(SucNa₂)₂Co(CH₃COO)₂] kompleks birikmasi rentgenogrammalari

aniqlash maqsadida termik analiz o'tkazildi [7,8]. Termik analiz natijalari: birikmalarni termik parchalanish bilan boruvchi issiqlik effekti tabiati, temperatura effekti intervallari va ularning tabiati, massani mg larda kamayishi 4-rasmda keltirilgan.




4-rasm. $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Co}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ kompleks birikmasi derivatogrammasi

$[(\text{SucNa}_2)_2\text{Co}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ tarkibli kompleks birikmaning DTA egrisida 74, 96°C da endotermik effektlar va 232, 301, 319, 328°C da ekzotermik effektlar mavjud. 74°C dagi effekt suvning parchalanishiga mos keladi. Keyingi 74-232°C termoeffektlarda asosiy massaning 8,64 % ya'ni 0,562 mg yo'qotiladi. Keyingi parchalanish 301-328°C oralig'ida kechadi. Unda asosiy massaning 36,4% organik kislota qoldig'ining parchalanishi va termoliz mahsuloti sifatida kobalt oksidining hosil bo'lishi o'rganildi. Aralash ligandli komplekslarning derivatografik tahlili natijasida namunaning massasi, komplekslarning parchalanish massasi va komplekslarning termik barqarorligi harorat ortgani sari o'zgarib borishi aniqlandi. Sintezlangan $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Co}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ kompleks birikma monokristallari o'stirilib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo institutining jamoaviy foydalanish markaziga o'rnatilgan XtaLAB Synergy(Rigaki, Yaponiya) difraktometrida rentgenstrukturaviy tahlili o'tkazildi [9]. Rentgen strukturaviy tahlil natijalari Xcalibur Roxford Diffraction avtomatik difraktometrida 293 K haroratda (Cu Karadiation, $k = 1,54184 \text{ \AA}$, xscan rejimi, grafit monoxromator) olingan.

1-Jadval

Qahrabo kislotasining natriyli tuzi va Co(II) atsetati bilan olingan kompleks birikmasi monokristalining kristallografik ma'lumotlari va strukturasi aniqlik kirituvchi parametrlar

Parametr	Qiymatlar	Parametr	Qiymatlar
Co li-kompleks birikma: $[\text{CoC}_{12}\text{H}_{14}\text{Na}_4\text{O}_{12}]$			
Formula	$\text{CoC}_{12}\text{H}_{14}\text{Na}_4\text{O}_{12}$	Kristall	$0.18 \times 0.14 \times 0.08$
Molekulyar massa	501.12	o'lchami, mm	
Singoniya	triklinik	Harorat T, °K	298
Fazoviy guruh	C1	Skanerlash oralig'i θ , °	3,6; -71,54
a, Å	17.83	Interval h,k,l	-20/24, -8/12, -14/16
b, Å	17.83	Jami reflekslar	4758
c, Å	12.61	Mustaqil reflekslar	1562
α °	90	soni	
β °	90	R_{int}	0.054
γ °	90	$F_2 \geq 2\sigma(F_2)$	1062
V, Å ³	4010	kriteriy	
Z	2	Aniqlagan parametrlar	244
Dx, g/cm ³	1.206	Strukturani aniqlash	1.14
$\mu(\text{CuK}\alpha)$, mm ⁻¹	1.238	sifati	
		$R_1, wR_2 (I > 2\sigma(I))$	0.0452, 1.532, 1.08
		$\Delta\rho_{\text{min}} / \Delta\rho_{\text{max}}$ eÅ ⁻³	-0.46 / 0.54
		CCDC-raqami va ref-kod	




5-rasm. Sintezlangan $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Co}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ tarkibli kompleks birikma kristalining tasviri

Kompleks birikmaning bog' uzunliklari va bog'lanish burchaklari

2-jadval

Bog'	d, Å	Burchak	ω, grad
Co(1)-O(1)	1.8028	O(1)-Co(1)-O(2)	91.25
Co(1)-O(2)	1.8066	O(1)-Co(1)-O(3)	82.98
Co(1)-O(3)	1.8089	O(1)-Co(1)-O(4)	117.30
Co(1)-O(4)	1.8043	O(1)-Co(1)-O(5)	92.06
Co(1)-O(5)	1.8431	O(1)-Co(1)-O(6)	159.83
Co(1)-O(6)	1.8435	O(2)-Co(1)-O(3)	173.75
Na(1)-O(11)	2.1589	O(2)-Co(1)-O(4)	86.03
Na(2)-O(10)	2.1601	O(2)-Co(1)-O(5)	101.55
Na(3)-O(9)	2.1603	O(2)-Co(1)-O(6)	83.35
Na(4)-O(12)	2.1592	O(3)-Co(1)-O(4)	94.45
O(1)-C(1)	1.3555	O(3)-Co(1)-O(5)	81.14
O(2)-C(3)	1.3552	O(3)-Co(1)-O(6)	102.89
O(3)-C(5)	1.2106	O(3)-Co(1)-O(4)	94.45
O(4)-C(8)	1.2093	O(3)-Co(1)-O(5)	81.14

Kristalning elementar yacheykasi parametrlari quyidagicha: fazoviy guruhi C1, $a=17.83\text{Å}$, $b=17.83\text{Å}$, $c=12.61\text{Å}$, $\alpha=90^\circ$, $\beta=90^\circ$, $\gamma=90^\circ$, $V=4010\text{Å}^3$, $Z=2$. $[\text{Co}(\text{Suc})(\text{MEA})]$ kompleksi monoyadroli bo'lib Co^{2+} ionining qahrabo kislotasi va sirka kislotasi qoldig'i bilan hosil qilingan, neytral tabiatga ega. Kompleks tarkibidagi Co(1)–O(1), Co(1)–O(2), Co(1)–O(3), Co(1)–O(4) va Co(1)–O(5), Co(1)–O(6) bog'lari orasidagi masofasi qiymati mos ravishda 1.8028Å, 1.8066Å, 1.8089Å, 1.8043Å va 1.8431Å, 1.8435Å ga teng [10, 11].



6-rasm. Kompleks birikmadagi vodorod bog'lanishlar

3-jadval

Kristall tuzilishidagi vodorod bog'lar ($^\circ$)

Bog'lanish	Masofa, Å			Burchak D–H...A, grad.	Atom koordinatalari, A
	D–H	H...A	D...A		
$[(\text{SucNa})_2\text{Co}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$					
C(7)–H(12)...O(1)	1.11	2.33	3.043	120	1-x, -y, 1-z
C(7)–H(12)...O(8)	1.11	2.47	3.202	139	x, 1/2-y, 1/2+z
O(2)–H(2B)...O(3)	0.78	1.83	2.671	166	1-x, -1/2+y, 3/2-z
O(3)–H(3C)...O(4)	0.85	1.89	2.728	170	1-x, 1/2+y, 3/2-z
O(3)–H(3D)...O(1)	0.85	1.94	2.730	155	x, 3/2-y, 1/2+z

O(1)–Co(1)–O(2), O(1)–Co(1)–O(3), O(1)–Co(1)–O(4), O(1)–Co(1)–O(5) va O(1)–Co(1)–O(6), O(2)–Co(1)–O(3) ning burchak kattaliklari mos ravishda 91.25° , 82.98° , 117.3° , 92.06° va 159.83° , 173.75° ga teng ekanligini ko'rish mumkin. Kompleks birikma tarkibidagi qahrabo kislotasi natriyli tuzi kislorod atomi va markaziy atom kobalt orasidagi masofa farqi Yan-Tellar effekti bilan tushuntiriladi.

Kompleks birikmadagi markaziy atom kobalt triklinik tipida ikkita molekula atsetat qoldig'i kislorod atomi va qahrabo kislotasi qoldig'idagi kislorod atomlari bilan koordinatsiyalanadi. Bunda atsetat qoldig'i kislorod atomi orqali monodentat va ikkita qahrabo kislotasi qoldig'i esa kislorod atomlari orqali bidentat ligandlar sifatida koordinatsiyalanishda qatnashadi. Markaziy atom kobaltning koordinatsion soni 6ga teng bo'lib, sp^3d^2 xolatda gibridlangan. Tahlil natijalari ko'ra kompleks tarkibidagi sirka kislotasi qoldig'i va natriy suksinat molekullari ishtirokidagi, C(7)–H(12)...O(1), C(7)–H(12)...O(8), O(2)–H(2B)...O(3) turdagi vodorod bog'lar (3-jadval) hisobiga *bc* tekislikiga parallel ikki o'lchamli qatlam hosil bo'lganligi hisobiga barqaror bo'ladi [12].

Xulosa va takliflar. Sintez qilingan kompleks birikmaning tarkibi, tuzilishi va xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari bilan o'rganilganda $[(\text{SucNa})_2\text{Co}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ kompleks birikma tarkibida ikki xil tabiiy metall atomlari borligi va ular geterometall poliyadroli kompleks birikma hosil qilishi aniqlandi. Yaratilgan sintez metodi o'xshash koordinatsion birikmalarni keyinchalik sintez qilishda qo'llanilishi mumkin. $[(\text{SucNa})_2\text{Co}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ koordinatsion birikmaning monokristallari o'stirildi va unga tegishli parametrlar mercuriy dasturi yordamida aniqlanib, jadval ma'lumotlari yordamida ifodalab berildi. Olingan geterometall poliyadroli kompleks birikmada markaziy atom kobalt bo'lib uning, koordinatsion soni 6 ga teng ekanligini va gibridlanishi sp^3d^2 holatda bo'lishini rentgen strukturaviy tahlildan olingan ma'lumotlarga tayanib aytish mumkin.

ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
- Шакирова Ю.Р. Гомо- и гетерометаллические люминесцентные комплексы металлов подгруппы меди: синтез и исследование фотофизических свойств: дис. ... канд. хим. наук : 02.00.01. – СПб., 2014. – 181 л.
- Synthesis and properties of the coordination compound of calcium stearate with thiocarbamide // Khasanov Sh.B., Ibdullaeva T.A., Abdullaeva Z.Sh., Khudoyberganov, O.I. *Azerbaijan Chemical Journal*, 2023, 2023(2), P-111–115.
- Прямой синтез координационных соединений. Под ред. акад. НАН Украины Скопенко В. В. - Киев: Вент, 1997.- 175 с.

5. Корусенко П. М., Несов С. Н., Ивлев К. Е. Морфология, структура и электрохимические свойства композита MnOx @ CNTs: исследование методами SEM, EDX, XPS и CVA // Омский научный вестник. 2022. № 2 (182). С. 86–92. DOI: 10.25206/1813-8225-2022-182-86-92.
6. Ковба П. М., Трунов В. К. Рентгенофазовый анализ. - М.: МГУ, 1976. - 232 с.
7. Топор Н.Д., Огородова Л.П., Мельчакова Л.В. Термический анализ минералов и неорганических соединений. Москва: Изд-во МГУ, 1987. - С.190.
8. Шаталова Т.Б., Шляхтин О.А., Веряева Е. Методы термического анализа. – Москва: 2011. – 72 с.
9. Савицкая Л.К. Рентгеноструктурный анализ: учебное пособие// Томск: СКК-Пресс, 2006, стр.274.
10. Macrae C.F, Bruno I.J, Chisholm J.A. et. al. Mercury CSD 2.0 – new features for the visualization and investigation of crystal structures // J. Appl. Cryst. -2008. –V.41. -P.466-470.
11. Sheldrick G.M. // SHELXS97, SHELXL97, Programs for Crystal Structures Solution and Refinement, University of Göttingen, Göttingen, Germany. - 1997.
12. G.M. Sheldrick, Acta Crystallogr., 2015, A71, 3.



Axror YARKULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: a.yarkulov80@gmail.com

O'zMU professori, k.f.d X.Akbarov taqrizi asosida

GIBRID DIATSETATSELLYULOZA-KREMNEZEM BIONANOKOMPOZITSIYASIGA N-GEPTAN MOLEKULASINING ADSORBSIYALANISHI

Annotatsiya

Gibrid DAS-kremnezem bionanokompozitsiyasiaga 303 K temperaturada n-geptan molekulasini adsorbsiyalanish izotermasi boshlang'ich qismdan to'yinishgacha mikrog'ovaklarning hajmiy to'yinish nazariyasining (MHTN) uch hadli tenglamasi bilan tavsiflandi. Gibrid DAS-kremnezem bionanokompozitsiyasiaga n-geptan molekulasini adsorbsiyalanishining differensial issiqlik pog'onasimon ko'rinishda hamda issiqlik miqdori 94 kJ/mol ga teng bo'lgan adsorbent-adsorbat, adsorbat miqdori 0,5 mmol/g dan so'ng adsorbat-adsorbat ta'sirlashish sodir bo'lib, polimolekulyar adsorbsiyalanish sodir bo'layotganligi aniqlandi. Differensial molyar entropiya egrisi n-geptan bug'i molekulalarining adsorbentdagi holati 0,55 mmol/g gacha mustahkam holatda joylashganligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: gibrid, diatsetatsellyuloza (DAS), kremnezem, *n-geptan*, bionanokompozitsiya, adsorbsiya, izoterma, MHTN.

АДСОРБЦИИ МОЛЕКУЛЫ Н-ГЕПТАНА ГИБРИДНЫМ БИОНАНОКОМПОЗИТОМ ДИАЦЕТАТЦЕЛЛЮЛОЗА-КРЕМНЕЗЕМ

Аннотация

Исследованы изотерма адсорбции молекулы н-гептана при температуре 303 К на гибридном бионанокompозите ДАЦ-кremnezem. Изотерма адсорбции характеризовалась трехчленным уравнением теории объемного заполнения микропор от начальной части до насыщения. Установлено, что дифференциальная теплота адсорбции молекул н-гептана на гибридном нанокompозите ДАЦ-кremnezem имеет ступенчатый вид, а также происходит адсорбент-адсорбатное взаимодействие теплотой равной 94 кДж/моль, после количество адсорбата 0,5 ммоль/г адсорбат-адсорбатное взаимодействие и происходит полимолекулярная адсорбция. Кривая дифференциальной молярной энтропии показала, что молекулы паров н-гептана находятся в твердом состоянии в адсорбенте до 0,55 ммоль/г.

Ключевые слова: гибрид, дицетатцеллюлоза, кремnezem, *n-гептан*, бионанокompозиция, адсорбция, изотерма, МХТН.

ADSORPTION OF HEPTANE MOLECULES BY HYBRID BIONANOCOMPOSITE DIACETATECELLULOSE-SILICA

Annotation

Isotherms of adsorption of heptane molecules at 303 K on hybrid bionanocomposite diacetatecellulose-silica (DAC-silica) have been investigated. Isotherm of adsorption can be described by three-member equation of theory of volume filling of microspores from the initial part before filling. It was determined that differential heat of adsorption on n-heptane molecules on DAC-silica nanocomposite is stepped and at this interaction adsorbent-adsorbate has carried out with evaluation heat 94 kJ/mol and at quantity of adsorbate more than 0,5 mmol/g interaction adsorbate-adsorbate has been observed, adsorption can be described as polymolecular. On the base of curve of differential molar entropy has been shown that molecules of n-heptane are in solid state in adsorbent before 0,55 mmol/g.

Key words: hybrid, diacetatecellulose, silica, *n-heptane*, bionanocomposition, adsorption, isotherm.

Kirish. Zol-gel kimyosining rivojlanishi bilan bir qatorda organo-noorganik gibrid materiallar so'nggi paytlarda sanoatda ham, ilmiy tadqiqotlarda ham katta e'tiborni tortdi. Oqsillar va polisaxaridlar tomonidan tartibga solinadi deb hisoblanadigan biomineralizatsiya tabiiy jarayonlaridan, ilhomlanib, so'nggi tadqiqotlar alkoksiloksan prekursorlar [1-3] kabi, polisaxarid tomonidan nazorat qilinadigan, zol-gel jarayonini yordamida noorganik to'rga polisaxarid birlashtirishga qaratilgan. Hozirgi vaqtda polisaxaridlarga asoslangan organo-noorganik gibrid materiallar funksional biomateriallarning rivojlanishida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy kimyoviy choklovchi reaktivlar yordamida olingan materiallardan farq qiladi, chunki ular past toksiklik va yuqori biomoyillik kabi afzalliklarga ega [4-6].

Adabiyot ma'lumotlarini tahlil qilish gibrid DAS-kremnezem bionanokompozitsiyalar tomonidan qutbsiz, qutbli molekularning adsorbsiyasi mexanizmi va termodinamik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligidan dalolat beradi. Xususan, gibrid DAS-kremnezem bionanokompozitsiyalarining [7, 8] adsorbsion xususiyatlarini, g'ovaklilik tuzilishini, faol markazlarning sonini (gidrofil/gidrofob), ularning kuchi va tabiatini yuqori vakuumli adsorbsion mikrokalorimetrik o'rganish asosida amaliy va ilmiy natijalarga erishishga xizmat qiladigan ko'plab ma'lumotlar olinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagilarni hisobga olib ilmiy ishda n-geptan molekulari bilan gibrid diatsetatsellyuloza-kremnezem bionanokompozitsiyasi adsorbsiyalanish xossalari universal yuqori vakuumli adsorbsion qurilma hamda unga ulangan differensial mikrokalorimetr Tiana-Kalve DAK-1-1A da tadqiqoti olib borildi va mikrog'ovaklarning hajmiy to'yinish nazariyasining bilan muhokama qilindi [9].

$$\theta = \exp[-(A/E)^n] \quad (1)$$

bu yerda, a – mikroq'ovaklardagi adsorbsiya, mmol/g; a_0 – adsorbsiya chegarasi, mmol/g; E – adsorbent energiyasi, ushbu energiya adsorbentlarning mikroq'ovak strukturalari bilan bog'langan, n — adsorbentning g'ovak strukturasi bilan bog'langan parametrlar. n – soni ko'rsatkichlari butun sonlar bilan ko'rsatiladi – 1, 2, 3, 4.

E va n – haroratga bog'liq bo'lmagan parametrlardir. Adsorbsiya energiyasi mikroq'ovaklar o'lchami funksiyasidir. Adsorbsiya energiyasi E_0 (kJ/mol⁻¹) va g'ovaklar o'lchamini nanometr (nm) o'lchanadi.

A – adsorbsiya ishi, kJ/mol; aniqrog'i suyuq adsorbat sirtidan (bosim R^0) muvozanatli gaz fazasiga (bosim R) 1 mol gazni ko'chirish:

$$A = RT \ln(P^0/P) \quad (2)$$

Adsorbentning to'yinish darajasini maksimal adsorbsiyaga a_0 adsorbsiya kattaligi a nisbati sifatida tasavvur qilish mumkin. Shunda (1) tenglamadan quyidagini olishimiz mumkin:

$$a = a_0 \exp[-(A/E)^n] \quad (3)$$

bu (3) tenglama, mikroq'ovaklarni hajmiy to'yinish nazariyasining umumiy tenglamasi hisoblanadi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Bizga ma'lumki, normal tuzilishdagi heptan (n -heptan – C_7H_{16} chiziqli tuzilishga ega bo'lgan, dipol momenti nol D ga teng qutbsiz molekuladir) har qanday turdagi neftning asosiy parafinlaridan biri hisoblanadi [10]. Shuning uchun n -heptan molekulasi olingan adsorbentni adsorbsiyalash xossalari o'rganish ham amaliy ham nazariy muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

1-rasmda yarim logarifmik koordinatalar ko'rinishida gibril diatsetatsellyuloza-kremnezem bionanokompozitsion materialni n -heptan bug'i bilan adsorbsiyalanish izotermasi keltirilgan. Gibril DAS-kremnezem bionanokompozitsion materialda n -heptan bug'i bilan adsorbsiyalanish izotermasi past bosimlarda (grafikda $\ln(P/P_0) \approx -11,78$ gacha) chiziqli holatida ko'tarilib, undan so'ng adsorbsiyalanish izotermasi botiq ko'rinishga ega bo'ldi. Gibril DAS-kremnezem bionanokompozitsion materialiga n -heptan bug'ini adsorbsiyalanishining to'yinishi 0,89 mmol/g teng bo'ldi.

2-rasmda gibril DAS-kremnezem bionanokompozitsion materialida n -heptan bug'i bilan adsorbsiyalanishini MHTN bo'yicha izotermalari keltirilgan.


Olingan izoterma mikroq'ovaklarning hajmiy to'yinish nazariyasi tenglamasi bilan tahlil qilindi. 2-rasmdan ko'rinib turibdiki, MHTN bo'yicha hisob-kitob qilib olingan ma'lumotlar eksperiment ma'lumotlariga mos keladi.

Bunda gibril DAS-kremnezem bionanokompozitsiyasiga n -heptan bug'ini adsorbsiya izotermasi MHTN ning uch a'zoli tenglamasi bilan yaxshi ifodalandi:


$$a = 0,358 \exp[-(A/33,07)]^6 + 0,167 \exp[-(A/21,72)]^5 + 0,403 \exp[-(A/1,70)]^3$$

Bu yerda a - adsorbsiya, mmol/g; A - adsorbsiya ishi.

Tenglama parametrlari: birinchi qism ulushi $a_{01}=0,358$ mmol/g, ulushi $E_{01}=33,07$ kJ/mol, ulushi $n_1=6$; ikkinchi qism uchun ulushi $a_{02}=0,167$ mmol/g, $E_{02}=21,72$ kJ/mol, $n_2=5$; uchinchi qism uchun $a_{03}=0,403$ mmol/g, $E_{03}=1,70$ kJ/mol, $n_3=3$.




1-rasm. 303 K da gibril DAS-kremnezem bionanokompozitsiyasini n -heptan bug'i bilan adsorbsiyalanish izotermasi



2-rasm. 303 K da gibril DAS-kremnezem bionanokompozitsiyasiga n -heptan bug'i bilan adsorbsiyalanish izotermasini MHTN orqali hisoblangan qiymatlari

MHTN gibril DAS-kremnezem bionanokompozitini n -heptan bug'i bilan adsorbsiyalanishini asosan uch tipdagi adsorbsion fazalarda kechishni ko'rsatdi. MHTN ni uch a'zoli tenglamasi shuni ko'rsatdiki 1- va 2-adsorbsion fazada gibril DAS-kremnezem bionanokompoziti tarkibida g'ovak tuzilishi o'zaro o'xshash ammo energiyasi jihatdan farq qiluvchi g'ovaklar bor ekan. Ushbu g'ovaklarda gibril DAS-kremnezem bionanokompozitini n -heptan bug'i bilan adsorbsiyalanishi birinchi adsorbsion fazada 38,6% ga yaqini, ikkinchi adsorbsion fazada esa 18% ga yaqini bo'lish bilan sodir bo'lar ekan.

Adsorbsiyalanish hodisasining muhim xarakteristikalaridan yana biri bo'lib uning kinetikasi hisoblanadi. Bunda adsorbentga adsorbsiyalangan adsorbat molekulalarining qancha vaqt davomida muvozanatga kelishi o'rganiladi. 3-rasmda adsorbsion muvozanat o'rnatilish vaqti (τ) ni gibril DAS-kremnezem bionanokompozitining n -heptan molekulasi bilan adsorbsiyalanish miqdoriga bog'liqligi ko'rsatilgan. Dastlabki n -heptan molekulalari adsorbsiyasi sekinlashgan bo'lib muvozanat qaror topish vaqti 5,5 soat, adsorbat miqdori deyarli 0,09 mmol/g ga teng bo'lganda 1,3 soatgacha kamayishi kuzatildi.




3-rasm Gibril DAS-kremnezem bionanokompozitsiyada n -heptan bug'ini adsorbsiyalanish qiymatiga bog'liq holda adsorbsion

muvozanat qaror topish vaqti

So'ngra gibril DAS-kremnezem bionanokompozitining n-geptan molekulasini bilan adsorbsiyalanishining termokinetikasi muvozanat vaqti to'liqsimon o'zgarib borib, adsorbsiyalanishning yakuniy muvozanat 0,5 soatda qaror topdi.

Bizga ma'lumki fizikaviy adsorbsiya issiqlik ajralishi bilan sodir bo'ladi, lekin bu jarayonda adsorbsiya issiqligi juda kam miqdorda va sekin ajralib chiqadi. Shuning uchun adsorbsiya vaqtida ajraladigan issiqlikni aniqlashda qiyinchiliklar mavjud. Ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun juda yuqori sezgirlikka ega bo'lgan qurilmalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Ushbu ishda universal yuqori vakuumli adsorbsion qurilma va unga ulangan differensial mikrokalorimet Tiana-Kalve DAK-1-1A dan foydalandik. Bu qurilma juda yuqori sezgirlikka ega bo'lib, juda sust ajralib chiqadigan adsorbsiya issiqligini ham aniqlay oladi [11]. Gibril DAS-kremnezem bionanokompozitida n-geptan bug'i bilan adsorbsiyasining differensial issiqligi 4-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki adsorbsiyalanishning dastlabki differensial issiqligi 94 kJ/mol ga teng bo'ldi. Gibril DAS-kremnezem bionanokompozitiga n-geptan bug'ining adsorbsiyalanish miqdori 0,5 mmol/g gacha differensial issiqligi pog'onasimon ko'rinishga ega bo'lib, adsorbsiya issiqligi 94 dan 87 kJ/mol gacha kamaydi.




4-rasm. 303 K da gibril DAS-kremnezem bionanokompozitsiyasiga n-geptan bug'i bilan adsorbsiyalanishini differensial issiqligi. Shtrix chiziq 303 K da n-geptanning kondensatsiyalanish issiqligi.

So'ngra n-geptanning adsorbsiyalanish miqdori 0,5 mmol/g dan 0,63 mmol/g gacha adsorbsiyalanish issiqligi keskin ravishda 87 kJ/mol dan 38 kJ/mol gacha kamayish kuzatildi, n-geptan bug'ining adsorbsiyalanish miqdori 0,63 mmol/g dan so'ng kondensatsiyalanish issiqligiga (36.13 kJ/mol) yaqin holatda sodir bo'lishi aniqlandi. Adsorbat n-geptan bug'ining adsorbsiyasi butun energetik gidrofob sohasida taxminan har bir zinatda 0,08 mmol/g oralig'ida o'zgarib turishi aniqlandi.

Demak gibril DAS-kremnezem bionanokompozitsiyasiga n-geptan bug'ining adsorbsiyalanish miqdori 0,5 mmol/g gacha bo'lganda adsorbsiyalanishning sof issiqligi 51 kJ/molga teng bo'ldi. Adsorbsiyalanish issiqligi pog'onasimon ko'rinishda ekanligi hamda miqdori 0,08 mmol/g ga teng bo'lgan n-geptan bug'i bo'yicha g'ovakli qatlamlardan iborat gidrofob markazlar borligi va adsorbat 94 kJ/mol ga teng bo'lgan yuqori issiqlik bilan adsorbent-adsorbat, 0,5 mmol/g dan so'ng adsorbat-adsorbat ta'sirlashish sodir bo'lib, polimolekulyar adsorbsiyalanish sodir bo'layotganligi aniqlandi.

Ma'lumki adsorbat molekularining adsorbsiyalanishida adsorbentning faol markazlari bilan ta'sirlanish energiyasi orasidagi farqni aniqlash maqsadida ularning adsorbsiya issiqligidan tashqari entropiyalari ham muhim ahamiyatga egadir. Entropiya adsorbat molekularining adsorbentdagi harakatini ifodalaydi [12].

Gibbs-Gelmols tenglamasi bo'yicha n-geptan bug'ining gibril DAS-kremnezem bionanokompozitsiyasiga adsorbsiyalanishining molyar differensial entropiyasi hisoblandi.



5-rasm. 303 K da gibril DAS-kremnezem bionanokompozitsiyasiga n-geptan bug'i bilan adsorbsiyalanishini differensial entropiyasi. Shtrix chiziq – o'rtacha molyar integral entropiya; Suyuq n-geptanning entropiyasi nolga teng deb qabul qilingan

5-rasmda n-geptan bug'ining DAS-kremnezem gibril bionanokompozitsiyasiga adsorbsiyalanishining differensial adsorbsiya entropiyasi o'zgarishini uning adsorbilanish miqdoriga bog'liqligi ko'rsatilgan (suyuq n-geptanning entropiyasi nol deb qabul qilingan). DAS-kremnezem bionanokompozitiga adsorbsiyalangan n-geptan bug'ining o'rtacha mol integral entropiyasi -105,6 J/mol·K ga teng. Differensial molyar entropiya egrisi n-geptan bug'i molekularining adsorbentdagi holati 0,55 mmol/g gacha mustahkam holatda joylashganligini ko'rsatdi. Adsorbsiyalangan n-geptan bug'ining miqdori ortishi (0,55 mmol/g dan so'ng) bilan adsorbentda adsorbat molekulari harakatchan ekanligi aniqlandi.

Xulosalar. 1. Gibril diatsetatsellyuloza-kremnezem bionanokompozitsiyasiga n-geptan molekulasini bilan olingan adsorbsiyalanish izotermalari, mikro'ovaklarning hajmiy to'yinish nazariyasining uch a'zoli matematik tenglamasi orqali yaxshi ifodalanishi ko'rsatildi;

2. Gibril diatsetatsellyuloza-kremnezem bionanokompozitlarda n-geptan molekulasining adsorbsiyalanish termokinetikasi o'rganildi va adsorbsion muvozanat qaror topishining vaqti 5.5 soat ekanligi aniqlandi;

3. Gibril diatsetatsellyuloza-kremnezem bionanokompozitsiyasiga n-geptan molekulasini bilan adsorbsiyalanishini differensial issiqligi pog'onasimon o'zgarishi hamda issiqlik qiymati 94 kJ/mol ekanligi aniqlangan;

4. Differensial molyar entropiyaning qiymati n-heptan molekullarda adsorbsiyalanish miqdori 0,5 mmol/g gacha adsorbat molekullarining harakatchanligi sekinlashib sorbentga mustahkam joylashishi aniqlangan.

ADABIYOTLAR

1. Sónia Sequeira, Dmitry V. Evtuguin, Inês Portugal, Ana P. Esculcas. Synthesis and characterisation of cellulose/silica hybrids obtained by heteropoly acid catalysed sol-gel process // *Materials Science and Engineering: C*. -2007.-V. 27(1). -P. 172-179.
2. S. Sequeira, D.V. Evtuguin, I. Portugal. Cellulose-Silica Hybrid Materials Obtained by Heteropolyacid Catalyzed Sol-Gel Synthesis // *Materials, Chemicals, and Energy from Forest Biomass*. -2007. -V. 954.(8). -P. 121-136.
3. Inês Portugal, Vânia M. Dias, Rui F. Duarte, Dmitry V. Evtuguin. Hydration of Cellulose-Silica Hybrids Assessed by Sorption Isotherms// *J. Phys. Chem. B*. -2010. -V. 114(11). -P. 4047-4055.
4. Sequeira, S; Evtuguin, DV; Portugal, I. preparation and properties of cellulose-silica hybrid composites // *Journal of Polymer Composites*. -2009. -V.30(9). -P. 1275-1282.
5. Yurii A. Shchipunov, Tat'yana Yu. Karpenko Hybrid Polysaccharide-Silica Nanocomposites Prepared by the Sol-Gel Technique // *J. Langmuir*. -2004. -V. 20(10). -P. 3882-3887.
6. Yury Shchipunov, Irina Postnova. Cellulose Mineralization as a Route for Novel Functional Materials // *Advanced functional Materials*. -2018. -V. 28(27). -P. 176-203.
7. Clement Sanchez, Beatriz Julia'n, Philippe Belleville and Michael Popall. Applications of hybrid organic-inorganic nanocomposites // *J. Mater. Chem*. -2005. -V. 15. -P. 3559-3592.
8. А.И. Суворова, А.Л. Суворов, М.В. Иваненко, Е.И. Шишкин. Нанокompозитные мембранные пленки на основе эфиров целлюлозы и тетраэтоксисилана // *Нанотехнологии в России*. -2009. -Т.4. -№1-2. -С. 102-108.
9. A. Yarkulov, B. Umarov, F. Rakhmatkarieva, N. Kattaev, Kh. Akbarov, E. Berdimurodov. Diacetate Cellulose-Silicon Bionanocomposite Adsorbent for recovery of Heavy Metal ions and Benzene Vapours: An Experimental and Theoretical Investigation// *Biointerface Research in Applied Chemistry- Open-Access Journal (ISSN: 2069-5837)*. -2022, -V. 12(3), -P. 2862-2880
10. Яркулов А.Ю., Сагдуллаев Б.У., Акбаров Х.И. Термодинамика адсорбции молекулы n-гептана гибридным бионанокompозитом диацетатцеллюлоза-кремнезем// *Universum: химия и биология:электрон. научн. журн*. 2024. 1(115). URL: <https://7universum.com/ru/nature/archive/item/16610>
11. A.Yu. Yarkulov, B.U. Sagdullayev, B.S. Umarov, F.G. Rakhmatkariyeva, Kh.I. Akbarov. Precision Adsorption-Calorimetric Investigations Of Thermodynamic Properties Of Hybrid Nanocompositions Of Diacetate Cellulose-Silica // *International Journal of Advanced Science and Technology* -2020, -V. 29(12), -P. 2936-2943
12. А.Ю. Яркулов. Термодинамические свойства гибридных диацетат целлюлозы кремнеземных нанокompозиций. СамГУ илмий ахборотнома. Самарқанд 2020. 3-сон (121) – С. 50-54.